

**PARPIEV M.P., NAZAROV A.M.**

**STANDARTLASHTIRISH  
ASOSLARI**  
**O'QUV –QO'LLANMA**



**TOSHKENT – 2022**

**Parpiev M.P., Nazarov A.M.**

# **STANDARTLASHTIRISH ASOSLARI**

**O'QUV -QO'LLANMA**

## Mundarija

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB Standartlashtirishning maqsadi va asosiy tushunchalari</b>	
1.1. “Standartlashtirish asoslari” fanining maqsadi va standartlashtirish-ning vazifalari.....	4
1.2. Standartlashtirishga oid asosiy tushuncha va atamalar.....	6
1.3. Standartlashtirishning asosiy tamoyillari va usullari.....	9
1.4. O’zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to’g’risida”gi qonuni.....	11
1.5. Standartlashtirishning turli darajadagi objeektlari va normativ xujjatlarning belgilanishi.....	17
1.6. Barcha darajadagi normativ hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va davlat ro’yxatidan o’tkazish tartibi.....	20
<b>II BOB. Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar faoliyati</b>	
2.1. Mahsulot sifati va raqobatbardoshligini ta’minlashda ISO standart-larining o’rni.....	23
2.2. ISO standartlarining belgilanishi.....	29
<b>III BOB. Texnik jihatdan tartibga solish tizimi</b>	
3.1. Texnik jihatdan tartibga solish to’g’risidagi qonun.....	34
3.2. Qishloq xo’jaligi mahsulotlariga doir texnik reglamentlar.....	46
<b>IV BOB. Mahsulotlar to’g’risidagi ma'lumotlarni standartlashtirish va kodlash</b>	
4.1. EAN kodlash tizimi.....	50
4.2. QR- kodlash to’g’risidagi ma'lumotlar.....	55
<b>V BOB. ISO 22000 standarti asosida mahsulotlarning xavfsizligiga doir asosiy tushunchalar</b>	
5.1. NASSR tizim tamoyillari va ularning qo’llanilishi.....	61
5.2. ISO 22000 xalqaro standartining ichki va tashqi afzallikkleri.....	63
5.3. ISO 22000 Xalqaro standart to’g’risida.....	65
5.4. Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi menejment tizimlarining doimiy yaxshilash kontseptsiyasi.....	69
5.5. Kritik nazorat nuqtalari uchun kritik chegaralar tushunchasi.....	74
5.6. HACCPni joriy etish bosqichlari .....	78
5.7. Qishloq xo’jaligi mahsulotlari sifati va xavfsizligini ta’minlashda xalqaro GLOBAL G.A.P standartini joriy etishning ahamiyati.....	80
5.8. «O’zstandart» «Halol» standarti bo'yicha sertifikatlashni joriy etish.....	97
<b>Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yxati.....</b>	<b>107</b>

## **Kirish**

Bugungi bozor munosabatlarining rivojlanish bosqichiga o'tishi bilan bog'liq bo'lган jarayonlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini standartlashtirish, sertifikatlash texnik reglamentlarning ishlab chiqilishi hamda amaliyotga joriy qilinishi va eksport bilan bog'liq bo'lган masalalar dolzarblik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2017 yil 28 apreldagi "O'zbekiston Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2935-sonli qarori, Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya milliy tizimini yanada rivojlantirish, tadbirkorlik muhitini tubdan yaxshilash, sog'liqni saqlash va iste'molchilarining huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Hududlarda tadbirkorlik tashabbuslari va loyihibalarini jadal amalga oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018 yil 11 sentyabrdagi PQ-3939-son qarori va «O'zstandart» agentligi huzuridagi standartlashtirish, sertifikatlashtirish va Texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 14 martdagi 220-son qaroriga keltirilgan sharhda mahalliy mahsulotlarning sifati va xorijiy bozorlardagi raqobatdoshligini ta'minlashning muhim omillaridan biri standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasidagi milliy normativ-huquqiy bazaning xalqaro talablarga mos kelish darajasi, shuningdek, respublikamizning sinov va o'lchash laboratoriyalari moddiy-texnika bazasining holati hisoblanishi, xususan, mazkur sohada qonuniy bazani takomillashtirish doirasida xalqaro qoida va amaliyotni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining "Texnik jixatdan tartibga solish to'g'risida" va "Muvofiqlikni baholash to'g'risida" gi qonunlari qabul qilinishi ichki bozorning sifatsiz mahsulotlardan himoya qilinishi hamda respublikamiz akkreditlangan laboratoriyalari tomonidan o'tkazilgan sinovlar natijalarining xalqaro darajada tan olinishini ta'minlashda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilayotganligi ta'kidlangan.

Ushbu, "Standartlashtirish asoslari"-deb nomlangan o'quv qo'llanma 5310900 – "Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifat menejmenti" (tarmoqlar bo'ycha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib fanning o'quv rejasи va o'quv dasturiga muvofiq holda tayyorlangan, o'quv qo'llanmadan, undan tashqari, 5411100- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ixtisoslik ta'lim yo'nalishi talabalari, "Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash asoslari"faning o'rganish tarixi hamda 5410500- "Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi" ta'lim yo'nalishi talabalari Metrologiya va sertifikatlash asoslari" fanlarini o'zlashtirishlarida foydalanishlari nazarda tutilgan.

## I BOB. Standartlashtirishning maqsadi va asosiy tushunchalari.



### 1.1. "Standartlashtirish asoslari" fanining maqsadi va standarlash-tirishning vazifalari.

"Standartlashtirish asoslari" fanini o'rganishdan maqsad: talabalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarning yetishtirish qayta ishlash jarayonlari texnika-texnologiya, menejment va marketing hamda raqamli iqtisodiyot yo'naliishlardagi ishlab-chiqarish, ekspot va iste'mol bilan bog'liq bo'lgan turli sifat boshqaruvi texnik jixatdan tartibga solish va sertifikatlashtirish bo'yicha masalalar bilan shug'ullanish, hamda normativ hujjatlar bilan ishlash borasida yetarli bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishdir. Asosiy vazifalar esa talabalarni uzliksiz ta'lim tizimida "Standartlashtirish asoslari" bo'yicha malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlaridan kelib chiqadi. Bunda maxsus fanlar doirasida standartlashtirish bo'yicha fundamental ma'lumotlar o'rganiladi.

Standartlashtirishning asosiy maqsadlari quyidagilardir:

- mahsulotlar, jarayonlar, ishlar va xizmatlarning (bundan buyon matnda "mahsulot" deb yuritiladi) aholining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga, atrof muhit uchun xavfsizligi, resurslarni tejash masalalarida iste'molchilar va davlat manfaatlarini himoya qilishdan;
- mahsulotlarning o'zaro almashinuvchanligini va bir-biriga mos kelishini ta'minlashdan;
- fan va texnika taraqqiyoti darajasiga, shuningdek aholining hamda xalq xo'jaligining ehtiyojlariga muvofiq holda mahsulot sifatini hamda raqobat qila olish imkonini oshirishdan;
- barcha turdagи resurslar tejalishiga ko'maklashishdan, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashdan;
- ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirishdan;

- tabiiy va texnogen falokatlar hamda boshqa favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish xavf-xatarini hisobga olgan holda xalq xo'jaligi ob'ektlarining xavfsizligini ta'minlashdan;

- iste'molchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi hamda sifati to'g'risida to'liq va ishonchli axborot bilan ta'minlashdan;

- mudofaa qobiliyatini va safarbarlik tayyorligini ta'minlashdan;

- o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashdan iboratdir.

Standartlashtirishning asosiy vazifalari:

- iste'molchi va davlatning manfaati yo'lida mahsulotning sifati va nomlariga nisbatan eng maqbul talablarni qo'yish;

- davlat, respublika fuqarolari va chet el ehtiyoji uchun tayyorlangan mahsulotga kerakli talablarni belgilovchi me'yoriy hujjatlar tizimini va uni ishlab chiqish qoidalarini yaratish, ishlab chiqish va qo'llash, shuningdek hujjatlardan nazorat qilish;

- standart talablarining sanoati rivojlangan chet mamlakatlarning xalqaro, mintaqaviy va milliy standartlari talablari bilan uyg'unlashuvini ta'minlash;

- bir-biriga mosligining barcha (konstruktiv, elektrik, elektromagnitli, informatsion, dasturli va boshqalar) turlarini, shuningdek mahsulotning o'zaro almashinuvchanligini ta'minlash;

- parametrik va turlar o'lchovi katorlarini, tayanch konstruktsiyalarni, buyumlarning konstruktiv jihatdan bir xil qilingan modullashgan bloki tarkibiy qismlarini aniqlash va qo'llash asosida birxillashtirish;

- mahsulot, uning tarkibiy kismlari, buyumlari, xom-ashyo va materiallar ko'rsatkichlari va tavsiflarining kelishib olinishi va bog'lanishi;

- material va energiya sig'imini kamaytirish, kam chiqindi chiqaruvchi texnologiyalarni qo'llash;

- mahsulotning ergonomik xossalariiga talablarning belgilanishi;

- metrologik normativ qoida, nizom va talablarning belgilanishi;

- standartlashtirish bo'yicha xalqaro tajribadan foydalanishni keng avj oldirish, mamlakatning xalqaro va mintaqaviy standartlashtirishda ishtirok etishini kuchaytirish;
- xorijiy mamlakatlarning talablari O'zbekiston Respublikasining xalq xo'jaligi ehtiyojlarini qondirolgan hollarda ularning xalqaro, mintaqaviy va milliy standartlarini mamlakat standartlari va texnikaviy shartlari tariqasida to'g'ridan-to'g'ri qo'llash tajribasini kengaytirish;
- texnologik jarayonlarga talablarni belgilash;
- mahsulotni standartlashtirish va uning natijalaridan foydalanish sohasida xalqaro hamkorlik qilish yuzasidan ishlarni tashkil qilish;
- texnik-iqtisodiy axborotni tasniflash va kodlash tizimini yaratish va joriy qilish;
- sinovlarni normativ-texnik jihatidan ta'minlash, mahsulot sifatini sertifikatlashtirish, baholash va nazorat qilish;

## **1.2. Standartlashtirishga oid asosiy tushuncha va atamalar.**

Qo'yida ISO – standartlashtirish bo'yicha xalqoro tashkilot tomonidan tavsiya etilgan standart atamasiga berishgan ta'rifni va boshqa tushunchalarga izohlar keltiramiz.

**Standart** - bu ko'pchilik manfaatdor tomonlar kelishuvi (konsensus) asosida ishlab chiqarilgan va ma'lum sohalarda eng maqbul darajali tartiblashtirishga yo'naltirilgan hamda faoliyatning har xil turlariga yoki natijalariga tegishli bo'lgan umumiyligini takror qiladigan qoidalar, umumiyligini qonun-qoidalar, tavsiyalar, talablar va usullarini o'z ichiga olgan hamda, belgilangan va tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan normativ hujjatdir. Standartlar fan, texnika va tajribalarning umumlashtirilgan natijalariga asoslangan va jamiyat uchun yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

**Standartlashtirish** deganda mavjud yoki bo'lajak masalalarga nisbatan umumiyligini ko'p marta tatbiq etiladigan talablarni belgilash orqali ma'lum sohada eng maqbul darajada tartiblashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-texnikaviy faoliyat

tushuniladi. Bu faoliyat standartlarni va texnikaviy talablarni ishlab chiqishda, nashr etishda va tatbiq qilishda namoyon bo'ladi. Standartlashtirishning muhim natijalari odatda mahsulot, jarayon va xizmatlarning belgilangan vazifaga mos kelishi, savdodagi g'ovlarni bartaraf qilish hamda ilmiy-texnikaviy hamkorlikka ko'maklashishda namoyon bo'ladi.

**Standartlashtirish ob'ekti** sifatida standartlashtiriladigan narsa (mahsulot, jarayon, xizmat) tushuniladi.

"Standartlashtirish ob'ekti" tushunchasini keng ma'noda ifodalash uchun "mahsulot, jarayon, xizmat" iboralari qabul qilingan bo'lib, buni har qanday materialga, tarkibiy kismlarga, asbob-uskunalarga, tizimlarga, ularni mosligiga, qonun-qoidasiga, ish olib borish uslubiga, vazifasiga, usuliga yoki faoliyatiga teng darajada daxldor deb tushunmoq lozim.

Standartlashtirish har qanday ob'ektning muayyan jihatlari (xususiyatlari) bilan cheklanishi mumkin. Masalan, oyoq kiyimga nisbatan yondashiladigan bo'lsa, uning katta-kichikligi va pishikligini alohida standartlashtirish mumkin.

Standartlashtirish ob'ekti sifatida xizmat – xalqqa xizmat qilishni (xizmat shartlarini qo'shib) va korxona hamda tashkilotlar uchun ishlab chiqarish xizmatini o'z ichiga oladi. Standartlashtirishning boshqa ob'ektlari faoliyatining biriktirilgan sohalarida O'zbekiston Respublikasi Ekalogiya va atrof-muxitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi. Sog'liqni saqlash vazirligi va Mudofaa vazirligi tomonidan belgilanadi.

**Uyg'unlashtirilgan standartlar** (ekvivalent standartlar): Bir va ayni shu ob'ektga tegishli bo'lган va standartlashtirish bilan shug'ullanuvchi turli idoralar tomonidan tasdiqlangan standartlar bo'lib, ular mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlarning o'zaro almashuvini, ushbu standartlarga muvofiq takdim etiladigan axborot yoki sinovlar natijalarining o'zaro tushunilishini ta'minlaydi.

Xalqaro, mintaqaviy, milliy standartlashtirish idoralari mavjud.

Xalqaro standartlashtirish faoliyatida barcha mamlakatlarning tegishli idoralari erkin holda ishtirok etishi mumkin.

**Mintaqaviy standartlashtirish** deganda dunyo miqyosida birgina jug'rofiy yoki iqtisodiy mintaqaga qarashli mamlakatlarning tegishli idoralari uchun erkin holda ishtirok etishlari mumkin bo'lган standartlashtirish tushuniladi.

**Milliy standartlashtirish** - bu muayyan bir mamlakat doirasida o'tkaziladigan standartlashtirish faoliyatidir.

Standartlashtirish har xil faoliyat turlari va uning natijalariga daxldor qoidalar, umumiy qonun-qoidalar yoki tavsiflarni o'zida qamrab olgan normativ hujjat hisoblanadi.

"Normativ" hujjat atamasi standartlar, shuningdek umumiy ko'rsatmalar, yo'riqnomalar va qoidalar tushunchasini ham o'z ichiga qamrab oladi.

Standartlashtirish maqsadlari ko'п qirrali bo'lib, ular asosan quyidagilardan iborat: bixillashtirish (har xillikni boshqarish), qo'llanishlilik, moslashuvchanlik, o'zaroalma-shuvchanlik, sog'liqni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash, tashqi muhitni asrash, mahsulotni himoyalash, o'zaro tushunishlikka erishish, savdodagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash va boshqalar. Bir maqsadning amalga oshishida bir vaqtda boshqa maqsadlarning ham amalga oshishi mumkin.

Standartlashtirishda mahsulotning vazifasiga muvofiqligi deganda belgilangan sharoitlarda muayyan vazifalarini buyum, jarayon yoki xizmatlar tomonidan bajarish qobiliyati tushuniladi.

Moslashuvchanlik esa, ma'lum sharoitlarda belgilangan talablarni bajarish uchun nomaqbul ta'sir ko'rsatmasdan mahsulot, jarayon yoki xizmatlarni birgalikda qo'llanishiga yaroqliligi deb tushuniladi.

O'zaroalmashuvchanlik – bir xil talablarni bajarish maqsadida bir buyum, jarayon, xizmatdan foydalanish o'rniга boshqa bir buyum, jarayon, xizmatning yaroqliligidan iborat.

Har xillikni boshqarish (unifikatsiyalashtirish yoki bixillashtirish) deb, muayyan ehtiyojini qondirish uchun zarur bo'lган eng maqbul o'lchamlarni yoki mahsulot, jarayon va xizmat turlarini tanlashga aytildi.

### **1.3. Standartlashtirishning asosiy tamoyillari va usullari.**

Standartlashtirish bo'yicha umumiy maqsad - mahsulot sifati, xavfsizligi jarayonlar va xizmatlar bo'yicha Davlat va iste'molchilarning qiziqishlarini himoyalashdir.

Standartlashtirishning ushbu umumiy maqsadidan kelib chiqqan holda uning asosiy tamoyillarini keltiramiz:

- **Sistemalik va komplekslilik.** Komplekslilik – bu murakkab sistemadagi barcha elementlarning muvofiqligidir.
- **Dinamiklik va standartlashtirishning o'suvchanligi.** Standartlar fan va texnikadagi yuz berayotgan o'zgarishlarga «adaptatsiya», ya'ni moslashishi kerak. Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkiloti «ISO»ning standartlari o'suvchandir.
- **Standartlashtirishning samaradorligi** – bu normativ hujjat qo'llanilganda iqtisodiy yoki ijtimoiy samara berishidir, ya'ni standartlashtirishga sarflangan bir so'mning o'n so'm foyda keltirishidir.
- **Standartlarni ishlab chiqishning ustivorligi** bu ustivorlik tovar va xizmatlarning o'zaro muvofiqligi, almashuvchanligi va xavfsizligini ta'minlashdir.
- **Uyg'unlashtirish tamoyili** - bu xalqaro savdoda to'siq bo'lmaydigan uyg'unlashgan standartlarni ishlab chiqishdir.
- **Afzallik tamoyili.** Bu tamoyil afzalroq sonlar qatoridan foydalanishga asoslangan bo'lib, ulardan buyum, uskunalarining nomenklaturasini kamaytirishda foydaniladi.

#### **Quyida standartlashtirishning usullarini sanab o'tamiz:**

- *Unifikatsiya:*
  - a) sistemalashtirish;
  - b) klassifikatsiya ( tasniflash);
- *Simplifikatsiya;*
- *Turlarga ajratish;*
- *Seleksiya ( tanlash);*
- *Optimallash;*
- *Agregatlash;*

- **Unifikatsiya** - standartlashtirish shakli bo'lib, ikki yoki undan ortiq hujjatlarni (texnik shartlarni) birlashtirishdir va bu hujjat bilan reglamentlangan buyumni iste'molda o'zaro almashtirish mumkin bo'lganligi, albatta, nazarda tutilgan bo'lisi kerak. Boshqacha qilib aytganda, unifikatsiya- bu bir xil funksional yunalishda bo'lgan bir turdag'i detal' va agregatlar sonini ratsional qisqartirish bo'yicha faoliyatdir. Mahsulotni unifikatsiyalash koeffitsienti Kn mavjud bo'lib, u quyidagi ifoda bilan keltiriladi:

$$K_n = \frac{n-n_0}{n} \times 100.$$

Bu yerda: n-buyumdag'i detallar soni bo'lib, unga standart, unifikatsiyalashgan hamda umummashinasozlik, tarmoqlararo va tarmoqda qo'llaniladigan detallar kiradi.  $n_0$ -optimal detallar soni;

a) sistemalashtirish- bu buyumlar, hodisalar va tushunchalarni aniq tartib va ketma-ketlikda joylash bo'lib, foydalanishga qulay bo'lgan tizimni yaratadi. Masalan, bu tizimdan entsiklopedik va politexnik ma'lumotnomalar va bibliografiyalarda foydaniladi. OKP - общероссийский классификатор промышленной и сельскохозяйственной продукции. Mashinalarning o'lchamlari va parametrлarini hamda ularning detallari va kismlari sistemalashtirish uchun afzalroq sonlar qatoridan foydalaniladi.

b) klassifikatsiya- bu buyum, hodisa va tushunchalarni klasslar, razryadlarga, ularning umumiyligi belgilariga bog'liq holda joylanishidir. Masalan, UDK - universal'naya desyatichnaya klassifikatsiya gumanitar va texnikaviy adabiyotlarni indekslar bilan rubrikalashning xalqaro tizimi sifatida qabul qilingan. Masalan, UDK62- texnika, UDK 621-umumiyligi mashinasozlik va elektronika, UDK62,3- elektrotexnika va boshqalar.

- **Simplifikatsiya** - standartlashtirishning shakli bo'lib, buyumlarning turi va boshqa turli ko'rinishlarining mikdorini qarayotgan vaqtdagi mavjud talablarga kamaytirishdir. Simplifikatsiya ob'ektlariga hech qanday texnikaviy mukammallashtirishlar kiritmaydi.

- **Turlarga ajratish** - bu ko'p sonli va ko'p turdag'i mashina, pribor, instrument va boshqalardan o'z sifati bo'yicha ratsional bo'lgan va o'z tartibida

umumiylar bo'lganlarini tanlashdir. Maqsadi buyumlarning ko'pxilligini likvidatsiya qilishdir.

- **Standartlashtirish ob'ektlarini tanlash (selektsiya).** Bu ishlab chiqarishning davom ettirilishi maqsadga muvofiq deb topilgan konkret ob'ektlarni tanlash.

- **Optimizatsiya-** bu optimal bosh parametrlarni hamda sifat va tejamkorlikning boshqa barcha kiymatlarini topishdir.

- **Agregatlash** - bu alohida unifikatsiyalashgan standart uzellaridan mashina, pribor va jihozlarni yaratish usulidir. Masalan, 15 ta razmerli mebel matlari va 3 ta o'lchamli standart qutilar. Ushbu elementlarning turli kombinatsiyalari 52 xil ko'rinishdagi mebel olish imkoniyatini beradi.

#### **1.4. O'zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to'g'risida”gi qonun.**

O'zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to'g'risida”gi Qonuni 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan. Mazkur Qonunga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan:

- O'zbekiston Respublikasining 26.05.2000 y. 82-II-Qonuni,
  - O'zbekiston Respublikasining 25.04.2003 y. 482-II-Qonuni,
  - O'zbekiston Respublikasining 10.10.2006 y. O'RQ-59-son Qonuni
  - O'zbekiston Respublikasining 30.04.2013 y. O'RQ-352-son Qonun
  - O'zbekiston Respublikasining 13.06.2019 y. O'RQ-436-son Qonuni
  - O'zbekiston Respublikasining 24.12.2019 y. O'RQ-597-son Qonuni
- Qonun 4 ta bo'lim, 12 ta moddadan iborat.

Standartlashtirishning asosiy maqsadlari (1-bo'lim, 1-modda) quyidagilardir: mahsulotlar, jarayonlar, ishlari va xizmatlarning (bundan buyon matnda "mahsulot" deb yuritiladi) aholining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga, atrof muhit uchun xavfsizligi, resurslarni tejash masalalarida iste'molchilar va davlat manfaatlarini himoya qilishdan;

- mahsulotlarning o'zaro almashinuvchanligini va bir-biriga mos kelishini ta'minlashdan;

- fan va texnika taraqqiyoti darajasiga, shuningdek aholining hamda xalq xo'jaligining ehtiyojlariga muvofiq holda mahsulot sifatini hamda raqobat qila olish imkonini oshirishdan;
- barcha turdag'i resurslar tejalishiga ko'maklashishdan, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashdan;
- ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirishdan;
- tabiiy va texnogen falokatlar hamda boshqa favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish xavf-xatarini hisobga olgan holda xalq xo'jaligi ob'ektlarining xavfsizligini ta'minlashdan;
- iste'molchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi hamda sifati to'g'risida to'liq va ishonchli axborot bilan ta'minlashdan;
- mudofaa qobiliyatini va safarbarlik tayyorligini ta'minlashdan;
- o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish ishlarini o'tkazishning umumiy tashkiliy-texnik qoidalarini tartibga solib turuvchi standartlashtirish tizimi faoliyat ko'rsatadi (1-bo'lim, 2-modda).

Respublikada standartlashtirish ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va ta'minlashni:

- xalq xo'jaligi tarmoqlarida - O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O'zstandart" agentligi); qurilish, qurilish industriyasi sohasida, shu jumladan loyihalash va konstruktsiyalashda - O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi;
- tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish hamda atrof-muhitni ifloslanishdan va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilish sohasida - O'zbekiston Ekologiya va atrof-muhitni muhofazaqilish Davlat qo'mitasi;
- tibbiyot uchun mo'ljallangan mahsulotlar, shu jumladan dori vositalari, tibbiy buyumlari, tibbiy texnik sohasida, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan, shu jumladan import bo'yicha yetkazib berilayotgan

mahsulotlarda inson uchun zararli moddalar mavjudligini aniqlash masalalarida – O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi;

Mudofaa qobilyatini va safarbarlik tayyorgarligini ta’minlash, mudofaa ahamiyatiga molik mahsulotlar sohasida – O’zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi amalga oshiradi.

Ushbu Qonunga muvofiq davlat boshqaruv organlari o’z vakolatlari doirasida standartlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va nashr etadi.

“O’zstandart” agentligi ushbu Qonunga muvofiq standartlashtirish ishlarini o’tkazishning umumiy qoidalarini, manfaatdor tomonlarning davlat boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari bilan olib boradigan hamkorlikdagi ishining shakl va usullarini belgilaydi (1-bo’lim, 3-modda).

“O’zstandart” agentligi, Qurilish vazirligi va O’zbekiston Respublikasi Ekalogiya va atrof-muxitni muhofaza qilish davlat qo’mitasi vazirligi O’zbekiston respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi va O’zbekiston Respublikasi mudofa vazirligi o’z vakolatlari doirasida standartlashtirish ishlarini bajarishni boshqa tashkilotlarga topshirishga haqlidirlar.

Standartlarni tasdiklagan organlar standartlarga doir tarmoq axborot jamg’armalarini hosil qiladilar va yuritadilar hamda manfaatdor iste’molchilarni xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar, O’zbekiston Respublikasi standartlari, xorijiy mamlakatlarning milliy standartlariga doir axborotlar bilan, shuningdek standartlashtirish sohasidagi xalqaro shartnomalar, texnik-iqtisodiy hamda ijtimoiy axborot davlat klassifikatorlari, standartlashtirish qoidalari, normalari va tavsiyalariga oid axborotlar bilan ta’minlaydilar.

Standartlarni nashr qilish va qayta nashr etishni ularni tasdiklagan organlar amalga oshiradilar.

Standartlashtirish to’g’risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan va O’zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir (1-bo’lim, 4-modda).

Qoraqalpog’iston Respublikasida standartlashtirish sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog’iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Basharti xalqaro shartnoma yoki bitimda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ta'riflanganidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, u holda xalqaro shartnoma yoki bitim qoidalari qo'llaniladi (1-bo'lim, 5-modda).

Qonunda normativ hujjatlarning toifalari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar (2-bo'lim, 6-modda) keltirilgan.

- O'zbekiston Respublikasida standartlashtirishga doir quyidagi toifadagi normativ hujjatlar qo'llaniladi;
- xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar;
- O'zbekiston Respublikasining davlat standartlari;
- Tashkilotning standartlari;
- xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari;

Davlat yagona va uzlusiz ta'lim tizimida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan davlat ta'lim standartlari ishlab chiqiladi.

Standartlashtirishga doir normativ hujjatlar jumlasiga, shuningdek standartlashtirish qoidalari, normalari, texnik-iqtisodiy axborot klassifikatorlari ham kiradi. Mazkur hujjatlarni ishlab chiqish va qo'llash tartibi "O'zstandart" tomonidan belgilanadi.

Xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar va xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari, shuningdek xalqaro qoidalari va normalari O'zbekiston Respublikasi ishtirok etgan shartnoma yoki bitimlarga muvofiq qo'llaniladi. Ushbu standartlar, qoidalari va normalarni respublika hududida qo'llash tartibini "O'zstandart" va davlat boshqaruving boshqa organlari o'z vakolatlari doirasida belgilaydilar.

Standartlashtirishga doir normativ hujjatlar vatanimiz hamda chet el fan va texnikasining zamonaviy yutuqlariga asoslangan va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Ular xalqaro savdo-sotiq uchun ortiqcha to'sqinliklarni vujudga keltirmasligi lozim.

Normativ hujjatlarsiz mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining manfaatlari himoya qilinishini va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobat qila olish imkonini ta'minlash uchun asosli hollarda standartlarda istiqbolga mo'ljallangan, an'anaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan ildamlashgan dastlabki talablar belgilab qo'yiladi.

Iste'molchilarga realizatsiya qilinadigan mahsulotga doir standartlar va ularga kiritilgan o'zgartishlar "O'zstandart agentligi" organlarida haq olmasdan davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak. "O'zstandart agentligi" organlarida ro'yxatdan o'tgan standartlashtirishga doir normativ hujjalarni teknik jixatdan tartibga solish sohasidagi normativ xujjatlarning davlat fondiga kiradi.

Mahsulot atrof-muhit, aholining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga xavfsizligini ta'minlash uchun, teknikaviy va axborot jihatdan mahsulotning bir-biriga mos kelishi va o'zaro almashinuvchanligini, ularni nazorat qilish usullari birligi va tamg'alash birligini ta'minlash uchun standartlarda belgilanadigan talablar, davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik faoliyati sub'ektlari rivoja etish uchun majburiydir.

Standartlarda mahsulotni yaratish, ishlab chiqarish va yetkazib berish shartnomasiga kiritilgan, qonun hujjalarda nazarda tutilgan o'zga talablar ham belgilab qo'yilishi mumkin.

Import mahsulot, basharti u O'zbekiston Respublikasida amal qilayottan teknik reglamentlarning yoki standartlarning majburiy talablar qismiga muvofiqligi tasdiqlanmagan bo'lsa, yetkazib berilishi va belgilangan maqsadda ishlatilishi mumkin emas.

Standartlashtirishga doir normativ hujjatlarning sertifikatlashtirishda qo'llanilishi (2-bo'lim, 7-modda) bo'yicha talablar ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, amaldagi qonun hujjalari muvofiq majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotni standartlashtirishga doir normativ hujjalarni sertifikatlashtirishni amalga oshirishda rivoja etiladigan talablarni, shuningdek ushbu talablarga muvofiqlikni nazorat qilish va sinash usullarini o'z ichiga olishi lozim.

Ko'rsatib o'tilgan hujjalarni mahsulotning mazkur turini sertifikatlashtirish tizimida belgilangan qoida va tartiblarga muvofiq qo'llanilishi lozim.

Qonunning 3-bo'lim 8 va 9-moddalarida davlat nazorati organlarining standartlarning majburiy talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirishlari hamda davlat inspektorlari, ularning huquqlari va javobgarliklari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Standartlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik tafsilotlari 3-bo'lim, 10-moddada berilgan bo'lib, ushbu Qonun qoidalari buzilishida aybdor bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek davlat boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi aytib o'tilgan.

Davlat yo'li bilan standartlashtirish va nazorat qilishga doir ishlarning moliyaviy ta'minoti bo'yicha 4-bo'lim, 11-moddada quyidagilar keltirilgan.

Standartlashtirish va nazorat qilishga doir ishlar, xususan:

- xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlarni, standartlashtirish qoidalari, normalari va tavsiyalarini ishlab chiqish yoki ishlab chiqishda ishtiroy etish;
- aniq standartlashtirish ob'ektlari bo'yicha qonun hujjatlarini ishlab chiqish, shuningdek standartlarning tarkibiy tashkiliy-texnik va umumtexnik majmuilarini ishlab chiqish va ularning amal qilishini ta'minlash;
- texnik-iqtisodiy axborot klassifikatorlarini ishlab chiqish, ular to'g'risida rasmiy axborot tayyorlash va nashr etish, shuningdek ularni barcha manfaatdor foydalanuvchilarga yuborish;
- standartlashtirish bo'yicha umumdavlat ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot va o'zga isharni olib borish;
- standartlarning majburiy talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini olib borish;
- standartlar fondini, texnik-iqtisodiy axborotlar klassifikatorlarini, xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlarni, standartlashtirish qoidalari, normalari va tavsiyalarini, xorijiy mamlakatlarning milliy standartlarini, shuningdek standartlarga muvofiqlik belgisi bilan tamg'alangan mahsulot va xizmatlar Davlat reestrini shakllantirish hamda yuritish;

- standartlashtirish sohasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi aniqlaydigan o'zga ishlar davlat yo'li bilan moliyaviy ta'minlanishi shart.

Nashr qilingan (qayta nashr etilgan) standartlarni, texnik-iqtisodiy axborot klassifikatorlarini, mahsulot va xizmatlar Davlat reestriga kiritilgan, standartlarga muvofiqlik belgisi bilan tamg'alangan mahsulot va xizmatlarning nashr qilingan (qayta nashr etilgan) katalogini sotishdan belgilangan tartibda olinadigan mablag'lar, shuningdek ushbu Qonun qoidalarini buzganlik uchun undiriladigan jarima mablag'larining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda davlat nazorati organlariga yo'llanadigan qismi ham standartlashtirish, standartlarning majburiy talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratiga doir ishlarni moliyaviy ta'minlash manbalari bo'lishi mumkin.

Respublika byudjeti mablag'laridan to'liq yoki qisman ta'minlanadigan davlat dasturlarini ishlab chiqishda mahsulot sifatini normativ jihatdan ta'minlash bo'limlari nazarda tutilishi lozim.

Standartlar qo'llanilishini rag'batlantirish (4-bo'lim, 12-modda).

Davlat standartlarga, shu jumladan istiqbolga mo'ljallangan, an'anaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan ildamlashgan dastlabki talablarni o'z ichiga olgan standartlarga muvofiqlik belgisi bilan tamg'alangan mahsulotni ishlab chiqaradigan xo'jalik faoliyati sub'ektlari iqtisodiy qo'llab-quvvatlanishi va rag'batlantirilishini kafolatlaydi.

Mahsulot ishlab chiqarishni amalga oshirayotgan va mahsulotlarni standartlarga muvofiqlik belgisi bilan tamg'alash huquqini olgan xo'jalik faoliyati sub'ektlarini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

## **1.5. Standartlashtirishning turli darajadagi ob'ektlari va normativ xujjalarning belgilanishi.**

Standartlashtirish bo'yicha faoliyatning asosiy maqsadi tovar va xizmatlar sifati va xavfsizligini ta'minlashdir. Standartlashtirish ob'ektlari bo'lib mahsulot,

protsess (jarayon) va xizmatlar hisoblanadi. 1-rasmida standartlar darajalari, ularni tasdiqlash darajalari va O'z ST standartlarining turlari keltirilgan.

Quyida standartlashtirishning barcha darajadagi ob'ektlarini keltiramiz:

- Standartlashtirishning davlatlararo ob'ektlari: GOST 1.0-92. Pravila provedeniya rabot po mejgosudarstvennoy standartizatsii. Овіціє polojeniya;
- Davlat standartlashtirish ob'ektlari:
  - tashkiliy-uslubiy va umumtexnikaviy normalar va talablar;
  - mahsulotga bo'lgan majburiy talablar;
  - tarmoqlararo qo'llanadigan mahsulotlar;
  - davlat ahamiyatidagi xo'jalik ob'ektlarining elementlari, shu jumladan, bank tizimi, transport, aloqa, energiya tashkiloti, mudofaa;
  - ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy dasturlarning davlat ob'ektlari;

<b>O'zbekiston Respublikasi Standartlashtirish tizimi qonunga muvofiq faoliyat yuritadi</b>	
<b>Standartlashtirish bo'yicha ishlvrni tashkil etish, muvofiqlashtirish va ta'minlash qo'ydagи tarmoqlarda amalga oshiriladi:</b>	
	Xalq xo'jaligi tarmoqlarida - O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O'zstandart"agentligi)
	Qurilish, qurilish sanoati, jumladan loyihalashtirish va konstruktsiyalashtirish sohasida O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi

	<p>Tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni ifoslantiruvchi va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilish sohasida – O'zR Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish DQ</p>
	<p>Tibbiy mahsulotlar, jumladan dori-dormonlar, tibbiy asbob- uskunalar, tibbiy texnikalar, O'zR.da ishlab chiqarilgan mahsulotlarda, import qilinadigan mahsulotlarda inson uchun zararli moddalarning tarkibini aniqlashda - O'zR SSV</p>

**1-rasm.** Standartlar darajalari, ularni tasdiqlash darajalari va O'z ST standartlarining turlari.

Standartlashtirishning ob'ektlari uchun normativ hujjatlarning quyidagi belgilanishlari o'rnatilgan:

*Davlat darajasida:*

- O'z DST - O'zbekiston davlat standarti;
- O'z DT - O'zbekiston davlat tasniflagichi (klassifikator);

Barcha darajadagi normativ hujjatlarni belgilash davlat tilidagi abbreviaturalar bilan amalga oshiriladi va unda hujjat qaysi tilda bo'l shidan qat'iy nazar quyidagicha nomlanadi:

O'z - O'zbekiston

D - Davlat (Gosudarstvo)

T - Tasniflagich (Klassifikatsiya)

H - Hujjat (dokument)

Sh - Shart (uslovie)

St - Standard (standart)

Davlatlararo standartlar rus tilida belgilanadi - GOST.

## **1.6. Barcha darajadagi normativ hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi.**

Tashkilot standartlari O'z DSt 1.28:2013 "O'zbekiston standartlashtirish tizimi. Tashkilot standarti. Umumiy qoidalar. ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish" ga muvofiq ishlab chiqiladi. O'z DSt 1.6:2013 O'zbekiston standartlashtirish tizimi. Me'yoriy xujjatlar. Tuzish, bayon etish, rasmiylashtirish, mazmun va belgilanishiga qo'yiladigan umumiy ta'lablar. O'z DSt 1.29:2013 O'zbekiston standartlashtirish tizimi. Xalqaro va mintaqaviy standartlar hamda boshqa normativ xujjatlarni davlat darajasida qabul qilish 1-qism. Xalqaro va mintaqaviy standartlarni qabul qilish (ISO/IEC GUIDE 21-1:2005, MOD). O'z DSt 1.30:2013 O'zbekiston standartlashtirish tizimi. Xalqaro va mintaqaviy standartlar hamda boshqa normativ xujjatlarni davlat darajasida qabul qilish 2-qism. Xalqaro va mintaqaviy standartlarni qabul qilish (ISO/IEC GUIDE 21-2:2005, MOD). Standartlar standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar (TQ), standartlashtirish bo'yicha tayanch tashkilotlar (STT), tadbirkorlikning boshqa sub'ektlari tomonidan ishlab chiqilishi mumkin.

Standartning mazmuniga va texnik-iqtisodiy asoslanganligiga va ko'rsatkichlar, me'yorlar va talablarning fan va texnikaning zamonaviy darajasiga muvofiqligi uchun ishlab chiquvchi tashkilot va standartni tasdiqlagan idora mas'ul bo'ladi.

Standartni ishlab chiqishda tashkiliy-metodik birlilikka erishish maqsadida, shuningdek ish bosqichlarining bajarilishini tekshirish uchun standart ishlab chiqishning to'rt bosqichi o'rnatilgan:

1-bosqich - standartni ishlab chiqishga texnik topshiriqni ishlab chiqish va tasdiqlash (zarur bo'lganda amalga oshiriladi);

2-bosqich - standart loyihasini ishlab chiqish (birinchi tahrir) va fikrlarni olish uchun tarqatish;

3-bosqich - fikr-mulohazalarni o'rganib chiqish, standart loyihasini (oxirgi tahririni) ishlab chiqish, kelishish va uni tasdiqlashga taqdim etish;

4-bosqich - standartni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish. Izoh: standartni ishlab chiqish bosqichlarini birga qo'shib bajarish ruxsat etiladi.

Standartni tasdiqlagan idoraning qarori bilan standart tasdiqlanadi va amalga kiritiladi.

O'zstandart Agentligi standartni davlat ro'yxatidan o'tkazadi.

Eksport uchun mo'ljallangan mahsulotga qo'shimcha talablar davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydi.

Standart davlat ro'yxatiga 4 nusxada taqdim etiladi: asli, ikkinchi nusxa (dublikat) va ikkita nusxa.

Standartning ikkinchi nusxasi standart asliga o'xshash bo'lishi va undan zarur sifatli nusxa olishni ta'minlashi kerak.

Standart davlat ro'yxatiga ikki tilda: davlat va rus tillarida taqdim etilishi lozim.

Standartga zarur bo'lganda kiritiladigan tuzatishlar qo'ldan qora tushy, pasta, siyoh bilan aniq yozilishi, birinchi varaqning orqa betida izohlangan va rahbar (rahbar muovini) imzosi va ro'yxatdan o'tkazishga taqdim etgan idora (tashkilot) ning muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Standart davlat ro'yxatidan ko'pi bilan 5 kun muddatda o'tkaziladi.

Standartni belgilash, standartni tasdiqlagan tashkilotdan qatyi nazar, O'zstandart Agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Standart belgisi quyidagilardan iborat bo'ladi:

- hujjat indeksi – O'z DSt
- ro'yxatga olingan tartib raqami;
- ikki nuqta bilan ayirilgan tasdiqlash yilining to'rtta raqami: masalan, O'z DST 789:1997

Standart asliyati, ikkinchi nusxasi va ikkita nusxasining birinchi betlarida ro'yxatga oluvchi idora ro'yxatga olgan idora nomi, sana va davlat ro'yxatidan o'g'gan nomeri ko'rsatilgan shtamp bosadi.

Standartning ikkinchi nusxasi va bir nusxa O'zstandart Agentligida qoladi.

Standart asliyati va nusxaning ikkinchisi ishlab chiquvchiga qaytariladi.

Tushuntirish yozuvi. Standart loyihasini ishlab chiqish bilan bir vaqtda standart loyihasiga tushuntirish yozuvi tuziladi.

Tushuntirish yozuvining nomida standartning darajasi va to'liq nomi, standart loyihasi tahririning tartib raqami va (yoki) standartni ishlab chiqish bosqichi to'g'risida ma'lumot keltiriladi.

Misol:

Tushuntirish yozuvi

O'zbekiston davlat standartining loyihasi \_\_\_\_\_ ga  
(standart nomi)

(fikr olishga tarqatiladigan birinchi tahriri).

Standart loyihasiga tushuntirish yozuvining bo'limlari quyidagi navbatda joylashtiriladi:

- 1) standartni ishlab chiqishga asos;
- 2) standartni ishlab chiqish maqsadlari va vazifalari;
- 3) standartlashtirish ob'ektining tafsiloti;
- 4) standartning ilmiy-texnikaviy darajasi;
- 5) standartni joriy etishdan olinadigan texnik-iqtisodiy samaradorlik;
- 6) joriy etish, standartni amalga kiritish (amal muddati) va standartni tekshirish;
- 7) boshqa me'yoriy hujjatlar bilan o'zaro bog'liqligi;
- 8) fikr-mulohazalar uchun jo'natilganligi to'g'risida ma'lumot (standartning birinchi taxriridan boshqa barcha tahrirlariga fikr olish uchun jo'natilganligi to'g'risida ma'lumot);
- 9) standart loyihasining (tasdiqlashga taqdim etiladigan faqat oxirgi tahririga oid) kelishilganlik to'g'risida ma'lumot;
- 10) axborot manbalari;
- 11) qo'shimcha ma'lumotlar.

Tushuntirish yozuvi standart loyihasining har bir tahririga tuziladi, tushuntirish yozuvida standart loyihasiga birinchi tahririga nisbatan kiritilgan asosiy ko'rsatkichlar, me'yorlar, tafsilotlar, talablardagi o'zgartirishlar aks ettiriladi va o'zgartirishlarni texnik-iqtisodiy asoslash keltiriladi.

"Standartni ishlab chiqishga asos" bo'limida standartning qanday manbaga asosan ishlab chiqilishi ko'rsatiladi.

"Standartni ishlab chiqish maqsadlari va vazifalari" bo'limida ishlab chiqiladigan standartni qo'llanish natijasida erishiladigan oxirgi natijalar va standartni ishlab chiqishda hal etiladigan masalalar keltiriladi.

"Standartlashtirish ob'ektining tafsiloti" bo'limida standartning birinchi marta ishlab chiqilayotgani to'g'risida ma'lumot yoki standart loyihasini ishlab chiqish boshlanishida amal qilinayotgan standartlar, texnik shartlar va boshqa hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar va ularning maqbulligini texnik-iqtisodiy asoslash keltiriladi.

"Standartning ilmiy-texnikaviy darajasi" bo'limida standartning ilmiy-texnikaviy darajasini baholash natijalari va uning jahon darajasidagi talablarga muvofiqligi keltiriladi; qanday xorijiy o'xhash standartlarga moslanganligi va ular to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi.

"Standartni joriy etishdan olinadigan texnik-iqtisodiy samaradorlik" bo'limida standartlashtirish ob'ektining iqtisodiy afzalliklari, tejash (tejamni olish) asosiy manbalari va uning moddiy va pul hisobidagi qiymati yoki ijtimoiy samarasi keltiriladi.

"Joriy etish, standartni amalga kiritish (amal muddati) va standartni tekshirish" bo'limida quyidagilar ko'rsatiladi:

1) standartni amalga kiritish sanasini asosiy tadbirlar rejasini bajarishga vaqtini hisobga olgan holda asoslash;

2) standartning amal muddatini cheklamasdan tasdiqlashni asoslash yoki standartning amal qilinishini cheklash mo'ljallangan muddatini asoslash, shuningdek standartni birinchi tekshirish va navbatdagi tekshirishlar muddatini asoslash.

"Fikr-mulohazalar uchun jo'natilganligi to'g'risida ma'lumotlar" bo'limida quyidagilar keltiriladi:

- standart loyihasi fikr olish uchun jo'natilgan tashkilotlar (korxonalar) soni;
- fikrlarini yuborgan tashkilotlar korxonalar soni;
- fikrlarni ko'rib chiqish natijalari (jamlangan fikrlarni).

## **II Bob. Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar faoliyati.**

### **2.1. Mahsulot sifati va raqobatbardoshligini ta'minlashda ISO-standartlarining o'rni.**

Bugungi kunda standartlashtirish bo'yicha quyidagi xalqaro tashkilotlar (1-jadval) faoliyat yuritmoqda:

**Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar**


**2.1-jadval.**

T/r	Tashkilotning qisqacha nomlanishi	Tashkilotning ingliz tilida nomlanishi	Tashkilotning o'zbek tilida nomlanishi
1	ISO	International Standards Organization	Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot
2	IEC	International Electrotechnical Commission	Xalqaro elektrotexnik komissiya
3	CEN	European Committee for Standardization	Standartlashtirish bo'yicha Yevropa komiteti
4	CENELEC	European Committee for Electrotechnical Standardization	Elektrotexnika va elektronika sohasida standartlashtirish bo'yicha Yevropa komiteti
5	ETSI	European Telecommunications Standards Institute	Telekommunikatsiyalar sohasida standartlashtirish bo'yicha Yevropa instituti
6	ITU	International Telecommunication Union	Xalqaro elektraloqa ittifoqi
7	OIWIL	International Organization of Legal Metrology	Qonunlashtiruvchi metrologiya bo'yicha xalqaro tashkilot
8	BIPM	Le Bureau International des Poids et Mesures	O'lchov va tarozilarning xalqaro byurosi
9	WELMEC	Organization of European national legal metrology services	G'arbiy Yevropa qonunlashtiruvchi metrologiya tashkiloti
10	EUROMET	European Collaboration on Measurement Standards	Etalonlar bo'yicha Yevropa hamkorligi
11	EOQ	European Organization for Quality	Sifat bo'yicha Yevropa tashkiloti

12	UN/ECE	United Nations Economic Commission for Europe	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi
13	EA	European Accreditation of Sertification	Akkreditlash bo'yicha Yevropa hamkorligi
14	ILAC	International Laboratory Accreditation Cooperation	Laboratoriyalarni akkreditlash bo'yicha xalqaro konferentsiya
15	APLMF	Asia-Pacific Legal Metrology Forum	Qonunlashtiruvchi metrologiya bo'yicha Osiyo-Tinch Okeani forumi
16	IFAN	International Federation of Standards Users	Standartlardan foydalanuvchilarning xalqaro federatsiyasi
17	ASEAN	Association of Southeast Asian Nations	Janubiy-SHarqiy Osiyo davlatlarining assotsiatsiyasi
18	APEC	Asia-Pacific Economic Cooperation	Tinch Okeani iqtisodiy hamkorligi
19	WTO	World Trade Organization	Umumjahon Savdo tashkiloti
20	EASC	EuroAsia Council on Standardization, Metrology and Sertification	MDHning standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha davlatlararo kengashi

2.1-jadval. Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot tuzilmasi.


ISO 1947 yilda ISO nizomi tasdiqlangach, rasmiy ravishda ish boshladi. Xalqaro tovar ayriboshlash va o'zaro yordamni osonlashtirish hamda intellektual, ilmiy, texnik va iqtisodiy faoliyatda hamkorlikni kengaytirish uchun standartlashtirishni dunyo miqyosida rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish tashkilotning maqsadi hisoblanadi. Standartlashtirish bo'yicha milliy organlar ISO a'zolari bo'lib hisoblanadi. ISOning qonuniy organi bo'lib barcha milliy tashkilotlar vakillarining umumiylig'i hisoblanadi. Bu yig'ilish "Bosh Assambleya" deb nomlanadi va ISO faoliyatidagi muhim masalalarni yechadi va uning siyosatini aniqlaydi. Tashkilot boshida prezident turadi. U har 3 yilda qayta saylanadi. Tashkilotning amaliy ishlarini shu tashkilotning kengashi olib boradi. "Xalqaro standartlarni yaratish bo'yicha" "ISO"ning ishchi organi bo'lib, texnik komitetlar va ishchi guruqlar hisoblanadi.



bo'yicha komitet (KASKO);

- Ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish komiteti (INFKO);
- Rivojlanayotgan davlatlarga yordam berish bo'yicha komitet (DEVKO);
- Iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish komiteti (KOPOLKO);
- Standart namunalar bo'yicha komitet (REMKO);

Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot ISO-standartlashtirish bo'yicha xalqaro ilmiy-texnik tashkilotdir, uning tarkibiga 85 dan ortiq davlatlarning standartlashtirish bo'yicha milliy tashkilotlari kiradi.



**2.1-rasm.** ISOning tashkiliy tuzilmasi.

Aniqlangan masala va takliflarni qayta ishslash maqsadida tashkilotda 7 ta komitet (qo'mita) ish olib boradi. Bular quyidagilar:

- Texnikaviy byuro (PLAKO);
- Standartlashtirish tamoyillarini o'rganish bo'yicha komitet (STAKO);
- Muvofiqlikni baholash

Zamonaviy bozor munosabatlarida ISO 9000 seriyali xalqaro standartlar asosiy muhim o’ringa ega. O’z vaqtida, ya’ni, bu standartlarning oldingi 1987 yildagi birinchi versiyasi nashri turli tarmoqlardagi korxonalarda sifat bo’yicha ishlarni tashkillashtirishda etalon, raqobatbardoshlikni oshirish va hamkorlar tomonidan ishonchni mustahkamlash vositasi sifatida tan olingan.

Respublikamiz korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro bozorga chiqishga erishish uchun ISO 9000 seriyali xalqaro standartlar asosida SMT joriy etishga qiziquvchilarning ortib borishi kuzatilmoxda. Masalan, hozirgi kunda ko’plab oziq-ovqat korxonalari «ISO 9001» sifatni boshqarish xalqaro sertifikatiga ega. Ularni joriy qilishdan ko’zlangan maqsad esa tovarlarni xalqaro bozorda integrallashuvini ta’minlashdir. SMT joriy qilish korxonalarining tenderlarda qatnashish, menejment tizimini takomillashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va hamkorlik muhitini rivojlantirish imkoniyatlarini beradi.



**2.2- rasm. Davlat standartlarini Xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish**

Korxonada ISO 9001 sertifikatni mayjudligi hamkorlik munosabatlarni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etishi, jahon moliyaviy bozoriga chiqish uchun majburiy shartlardan bo’lib hisoblanmoqda. ISO sertifikati – nufuzli va obro’li xalqaro tashkilot (ISO) tomonidan xolisona tan olingan guvohnomadir. Undan tashqari ISO sertifikatiga ega bo’lgan korxonalarda boshqaruv tizimi to’g’ri yo’lga qo’yilgan bo’ladi.

Quyidagi ISO standartlarining qisqa tarixi to'g'risidagi taxlilini keltiramiz. ISO 9000 (ISO 9000-94) seriyali standartlarining keyingi versiyasi 1994 yilda paydo bo'ldi. O'zida noaniq holatlarni tushuntirish va bartaraf qilish bilan 1987 yilgi standartlar tuzilmasini takrorlagan. ISO 9000 (ISO 9000:2000) seriyali xalqaro standartlarning yangi versiyasi 1994 yil 15 dekabrdagi oldingi versiyasi bilan 2000 yilda rasman almashtirildi. 2001 yilning 1 yanvaridan ISO 9000:2000 versiyasi amalga kiritildi. Yangi versiya standarti sertifikatlashtiruvchi, muqobil sifat modellarini o'zida mujassam etmaydi. Paydo bo'lган ISO 9001:2000 standartini qayta ko'rib chiqish natijasida 1994 yilgi ISO 9001, ISO 9002, ISO 9003 standartlar versiyasi qator tamoyilli farqlari mavjudligini o'zining mohiyati bo'yicha alamashtirilgan. Masalan, hujjatlar majmuasi avval 24 ta standartdan iborat bo'lган bo'lsa, hozirda o'zida quyidagi 5 ta asosiy standartlarni qamrab oladi:

- ISO 9000:2000 Sifat menejmenti tizimlari. Asosiy tamoyillar va lug'at.
- ISO 9001:2000 Sifat menejmenti tizimlari. Talablar (sertifikatlashtirish va audit maqsadlari uchun qo'llanalidigan va sifat tizimiga zaruriy talablar yig'indisini o'rnatadi).
- ISO 9004:2000 Sifat menejmenti tizimlari. Yaxshilash bo'yicha rahbariy ko'rsatmalar (korxona faoliyatining yuqori samaradorligiga mo'ljallangan sifat menejmenti tizimini yaratish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalardan tarkib topgan).
- ISO 19011:2000 Sifat menejmenti tizimi va atrof-muhitni himoyalashni tekshirish bo'yicha rahbariy ko'rsatma.
- ISO 10012 O'lhash vositalarining sifatini ta'minlash.

ISO 9001 va ISO 9004 asos bo'luvchi standartlar bo'lib, tuzilmasi va mundarijasи bo'yicha to'liq o'zaro uyg'unlashgan. Ulardan birgalikda va ajratilgan yakka tartibda foydalaniladi. Ikkala standart sifat menejmenti jarayoni modeliga asoslangan, ammo, qo'llanilish sohasi turlicha bo'lган bir xillik mavjud. Ikkala standart muayyan tarmoqda ishlab chiqilishi mumkin bo'lган, asosiy talablarni tashkil etib va barcha turdagи mahsulotlarga qo'llanilishi mumkin. ISO 9001 va ISO 9004 standartlari boshqa tizim standartlari bilan bir-biriga mosligi sifatida qisman,

atrof-muhitni muhofazalashni menejmenti tizimlarini tartiblashtiruvchi ISO 14001 va ISO 14004 bilan mosligi rejalashtirilgan. Amaldagi ISO 8402 standarti ISO 9000 standartiga o'zgartirildi. U SMT (ma'lumotli bo'limi), hamda tushunchalar, atamalar va ta'riflar asosi bo'lib xizmat qildi.

ISO 9000 standarti ISO 9000:1994 va ISO 8402 standartlarini almashtiradi.



**2.2. ISO standartlarining belgilanishi**  
«Lug'at» (ISO 8402) qayta ko'rib chiqilishga duchor qilindi: «eski» tushunchalar aniqlashtirildi va yangi atamalar qo'shimcha kiritildi.

### **2.3-rasm. ISO standartlarining belgilanishi**

*ISO 9001:2008.* ISO 9001 yildagi versiya standartlari qayta ko'rib chiqilgan ISO 9001:2008 standarti amaliyotda ISO 9001:1994 ning barcha talablarini va unga qator yangi qo'shimchalarni o'z ichiga olgan. Standartning tuzilmasi to'liq o'zgartildi: 20 ta elementga bo'lingan «keskin» talablari 5 ta asosiy bo'limga kirtilgan – «Sifat menejmenti tizimi», «Rahbariyatning javobgarligi», «Resurslar menejmenti», «Mahsulotning hayotiy tsikli jarayonlari», «O'lchashlar, tahlil qilish va yaxshilash». ISO 9001:2015 standarti ilovasida ISO 9001:1994 va ISO 9001:2000 bo'limlarga muvofiq jadvali keltirilgan. Ushbu jadval sifat tizimini hujjatlashtirishda va qayta ko'rishda qulay bo'lib, ikkita ish bajarmasdan Sifat bo'yicha qo'llanmani shu bo'limni oddiygina ko'chirib, ya'ni o'zgartirishga mashaqqat chekmasdan qayta ishlab chiqishda foydalaniladi.

*ISO 9004:2000.* U barcha qiziquvchi tomonlarning: buyurtmachilar, jarayon egalari, ta'minotchilar, jamiyat talablarini maksimal qanoatlantirish va uning hisobiga ishlarni tashkillashtirishga mo'ljallangan. Bu yerda korxona daromadi va boshqa yuqorida tilga olingan sub'ektlar va buyurtmachilarni qanoatlantirish yo'llarini ta'minlash to'g'risida fikr yuritilmoqda. ISO 9004:2000 qo'llanma ISO 14001 «Atrof-muhitni muhofazalash menejmenti tizimi» standarti bilan ko'p jihatlari uyg'unlashgan bo'lib, bu ikki standartdan birgalikda foydalanish jamiyat

uchun foyda keltiradi. Qayta ko'rib chiqilgan ISO 9004 standarti buyurtmachilar, jarayon egalari, ishchilar, ta'minotchilar va jamiyat hamda iste'molchilar qiziqishlariga tashkilot faoliyatining natijaviyligiga erishishga mo'ljallangan. Bunda ISO 9004 standartining har bir bo'limi ISO 9001:2015 standartining bo'limlariga muvofiq matnlardan tarkib topgan. O'zbekistonda 2002 yildan ISO 9000 seriyali 2000 yil versiya standartlariga asl nusxasiga teng bo'lgan O'zDst ISO 9001:2002 standartlari amal qilinadi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida 2008 yildagi ISO 9001 standarti versiyasini 2009 yilda tasdiqlanib, O'zDst ISO 9000:2009 standarti amalga kiritilgan.

Hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasida sifat menejmenti tizimlariga talablarni o'rnatuvchi quyidagi standartlar qabul qilingan va amal qiladi:

- O'zDst ISO 9000:2009 «Sifat menejmenti tizimlari. Asosiy qoidalar va lug'at»;
- O'zDst ISO 9001:2015 «Sifat menejmenti tizimlari. Talablar»;
- O'zDst ISO 9004:2015 «Sifat menejmenti tizimlari. Faoliyatni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar».

ISO 9000 sifat tizimi standartlari joriy etilgan bo'lsa, ta'minotchilarga ko'proq ishonch hosil qilish imkoniyatini beradi deb hisoblash mumkin. Sifatni boshqarish va sifat tizimini sertifikatlashtirish tushunchalariga aniq bo'lishi muhimdir. Sifatni boshqarish – ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni oqilona va e'tiborli boshqarish hisobiga mahsulot va xizmatlarning yuqori sifat darajasini amalda ta'minlash imkoniyatini beruvchi korxonani boshqarish vazifalaridan biridir. Sifat menejmenti tizimi muayyan korxonaning vazifa va xusisiyatlariga muvofiq tashkillashtirishdir. ISO 9000 standartlari bunday tizimni qurish usulini taklif qiladi va rasmiy ravishda sertifikatlashtirish mumkin. SMT sertifikatlashtirish ushbu mahsulot va xizmatlar sifatining yuqoriligi va barqarorligini ta'minlab, talablarni aniqlab va samarali ishchi holatdaligi hisobiga ushbu korxona SMT ishlab chiqilganligi va tashkillashtirilganligi bozordagi boshqa ishtirokchilarga nomoyon qiladi.

ISO 9000 standartlari oilasining universalligi har bir alohida mahsulot yoki

xizmatlar turi (masalan, mahsulotning talb etilgan texnik tavsiflari) uchun sifat mezonlarini mutloq o'lchanishini tavsiya etilmaydi. Mahsulot yoki xizmatlarning insonlarni talablarini qondirish xususiyati bo'lsa bu sifatlidir, buning esa iloji yo'q, lekin talablar turli va tugalmasdir. ISO 900 standartlar oilasi faqat sifat tizimi ishchi holati usuliyatini namoyon etadi, o'z o'rnida ishlab chiqarish korxonalarining mahsulot va xizmatlar yuqori sifatililagini ta'minlashi lozim, boshqacha so'z bilan aytganda, iste'molchilarning yuqori darajada qanoatlanishini ta'minlash lozim.


ISO 9000 standartlarini joriy etishga ikkita yondoshuv mavjud. Birinchi holatda standartlardan tashkilot samaradorligini oshirish vositasi sifatida foydalilanadi. Bunda ularni joriy etishga ichki talab paydo bo'lishi va buni yuqori rahbariyat yaratadi biroq busiz kelgusida rivojlanish bo'lmaydi. Bunday strategiyada tizimning natijaviyligini oshirish, xolisona ichki auditni o'tkazish, o'z-o'zini baholash uchun resurslarni belgilash, eng maqbul hujjatlar tarkibini ishlab chiqish zaruriyati paydo bo'ladi va sifat tizimi tashkillashtirish, jarayonlar, mahsulot sifati birinchi o'rinda turadi.


Ikkinchi holatda esa, sertifikat olish maqsadida standartlar joriy etiladi. Bunda boshqalardan qolishmaslik istagida, shartnomalar tuzishda iste'molchilar, hamkorlar yoki tender talablari shartlari bo'lishi mumkin bo'lgan zaruriyat yuzaga keladi. Bunday yondoshuvda barcha kuch va e'tibor sertifikatlashtirish idorasi talablarini rasmiy bajarish va hujjatlarni ishlab chiqishga jalgan etiladi. Texnik, iqtisodiy va boshqaruvi qarorlarini qabul qiluvchi mutaxassislar bir tomoniga qolib, xodimlar faqat tekshiruvchilar uchun zarur bo'lgan ishlarni bajarishadi. Standartlarni joriy qilishdan asosiy maqsad bu tizim sifatni yaxshilashi lozim.

SMT samarali joriy etish va qurish uchun korxonaning sifat sohasidagi strategiyasini aniqlash, korxonada SMT ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha ishchi guruhini yaratish, biznes jarayonlar tahlilini o'tkazish, korxonada sifatni boshqarish sohasida bajarilgan ishlarning butun tafsilotini tahlil qilish kerak. Sifat menejmenti tizmini va SMT hujjatlashtirilgan protseduralarini ishlab chiqish mashaqqatli va mas'uliyatli bosqich bo'lib hisoblanadi va shuning uchun loyihaning alohida bosqichi etib belgilangan.

ISO 9000 standartlari bo'yicha sertifikatlashtirish korxona sifat tizimining qator tarkiblari sifatida va rasmiy talablar sifatida muvofiqligi ko'zlangan. Sifat tizimini bu talablarga muvofiqligini o'rnatish jarayoni o'ta mashaqqatli bo'lishi mumkin ya'ni ko'p vaqt talab etiladi. Buning uchun, korxona rahbariyati ISO 9000 bo'yicha sertifikatlashtirishga sifat tizimi tayyorligi to'g'risida qaror qabul qilishdan oldin, barchadan «Rozi» va «Qarshi»ligiga puxtalik bilan yondoshmog'i lozim, shuningdek, korxona uchun sifat tizimiga sertifikat nima uchun kerakligini yaqqol aniqlashi lozim.

ISO 9001 standartlar talablariga muvofiq Sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etish bosqichlari 2.3-rasmda keltirilgan.





**2.4- rasm. ISO 9001 standartlar talablariga muvofiq Sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etish**

#### **Nazorat savollari**

1. O'zbekiston standartlashtirish tizimi.
2. Standartlashtirishning turli darajadagi ob'ektlari.
3. Standartlashtirishning turli darajadagi ob'ektlari uchun normativ hujjatlarning belgilanishlari.

### **III BOB. Texnik jihatdan tartibga solish tizimi.**

#### **3.1. Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risidagi qonun.**

«Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida»gi qonun 2009 yil 23 aprelda kuchga kirgan bo'lib, u 4 ta bob, 28 ta moddadan iborat.

«Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida»gi qonunga o'zgartirish kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 17-son, 211-modda; 2016 y., 17-son, 173-modda, 52-son, 597-modda; 2017 y., 24-son, 487-modda, 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.12.2019 y., 03/19/597/4193-son; 15.01.2021 y., 03/21/666/0032-son).

1-bob umumiq qoidalarga bag'ishlangan bo'lib, 1-moddada qonunning maqsadi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilash, qo'llash va bajarish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligi, 2-moddada texnik jihatdan tartibga solish to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratligi, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining texnik jihatdan tartibga solish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalari belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanilishi aytib o'tilgan. 3-moddada ushbu qonunda qo'llanilgan quyidagi asosiy tushunchalar keltirilgan:

- **texnik jihatdan tartibga solish** - mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilash, qo'llash va bajarish;
- **mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi** - mahsulotning, uni ishlab chiqarish, ishlatish (undan foydalanish), saqlash, tashish, realizatsiya qilish va utilizatsiya qilish jarayonlarining; bajariladigan ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlarning holati bo'lib, bunda insonning hayotiga, sog'lig'iga, atrof-muhitga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga zarar yetkazilishi ehtimoli bilan bog'liq yo'l qo'yilmaydigan xavf mavjud bo'lmaydi;
- **texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar** - texnik reglamentlar, standartlashtirishga doir normativ hujjatlar, sanitariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalari, shaharsozlik normalari hamda

qoidalari, ekologik normalar hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa hujjatlar;

- **texnik reglament** - texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

- **umumiy texnik reglament** – texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, bir turdag'i mahsulotlar, ishlar va xizmatlar guruhi xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat

- **maxsus texnik reglament** - texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, umumiy texnik reglamentda nazarda tutilmagan mahsulotlar, ishlar va xizmatlar ayrim turining xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

- **savdodagi texnik to'siqlar** - mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda mavjud bo'lgan tafovutlari yoki o'zgarishlari oqibatida savdoda yuzaga keladigan to'siqlar.

Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat (4-modda):

- inson hayoti va sog'lig'i, yuridik, jismoniy jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulki xavfsizligini ta'minlash;
- atrof-muhit muhofaza qilinishini, shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanilishini ta'minlash;
- savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etish;
- mahsulot, ishlar va xizmatlar xavfsizligi xususida iste'molchilarни chalg'ituvchi harakatlarning oldini olish.

Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy printsiplari quyidagilardan (5-modda) iborat:

- texnik reglamentlarni qo'llashning majburiyligi;
- texnik reglamentlarni qo'llashning bir xilligi;
- texnik reglamentlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi milliy va xalqaro normativ hujjatlarga muvofiqligi;

- texnik reglamentlarning, ularni ishlab chiqish, qabul qilish va e'lon qilish tartibi to'g'risidagi axborotning ochiqligi.

Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimini quyidagilar tashkil etadi (6-modda):

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari - O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasida o'z vakolatlari doirasida faoliyatni amalga oshiruvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari.

Qonunning 2-bobi davlat organlarining va boshqa organlar hamda tashkilotlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatlariga bag'ishlangan. Jumladan, 7-moddada belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

- texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimiga kiruvchi organlar faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi;

- texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimiga kiruvchi organlarning faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi;

- texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarini tasdiqlaydi;

- umumiyligi texnik reglamentlarni tasdiqlaydi, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritadi, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Qonunning 8-moddasida O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatlari sanab o'tilgan. Xususan, O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi:

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan kiritilgan texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarining loyihalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga umumlashtirilgan takliflar kiritadi;

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining umumiyligi va maxsus texnik reglamentlarni ishlab chiqishga doir faoliyatini o'z vakolati doirasida muvofiqlashtiradi hamda tashkil etadi;

- umumiyligi texnik reglamentlarni tasdiqlash, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyasini tuzadi;

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan umumiyligi va maxsus texnik reglamentlarni o'z vakolati doirasida ekspertizadan o'tkazadi;

- o'z vakolati doirasida: xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlaydi, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritadi, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qiladi;

- umumiyligi va maxsus texnik reglamentlarga rioya etilishi ustidan o'z vakolati doirasida davlat nazoratini amalga oshiradi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasida o'z vakolati doirasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

9-moddada davlat organlarining vakolatlari yoritib o'tilgan bo'lib:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning xavfsizligiga doir, ularda inson hayoti va sog'lig'i uchun zararli bo'lgan moddalar, kasallik tug'diruvchi organizmlarning mavjudligi, kasallik tashuvchilarning kirib kelishi yoki tarqalishining oldini olish, tibbiyot uchun mo'ljallangan buyumlar, tibbiy texnika va

dori vositalarini ishlab chiqarish hamda qo'llash bo'yicha majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi qo'mitasi shaharsozlik faoliyatida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Ekalogiya va atrof-muhitni muxofaza qilish davlat qo'mitasi tabiiy resurslardan foydalanishda hamda atrof-muhitni ifloslanish va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilishda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta'minlaydi.

Ushbu moddaning birinchi - uchinchi qismlarida ko'rsatilgan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari o'z vakolati doirasida:

- texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlari loyihalari va umumiy texnik reglamentlarni tasdiqlash yuzasidan O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligiga takliflar kiritadi;
- umumiy va maxsus texnik reglamentlar ishlab chiqilishini amalga oshiradi hamda ularni ekspertizadan o'tkazadi;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalarini tuzadi;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan umumiy va maxsus texnik reglamentlarni ekspertizadan o'tkazadi;
- umumiy texnik reglamentlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;
- maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlaydi, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritadi, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qiladi;
- umumiy va maxsus texnik reglamentlarga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondini shakllantiradi; texnik jihatdan tartibga solish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga

oshiradi. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

10-moddada davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari o'z vakolatlari doirasida:

- texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlari loyihalari yuzasidan O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligiga takliflar kiritishi;

- umumiy va maxsus texnik reglamentlar ishlab chiqilishini amalga oshirishi;

- umumiy va maxsus texnik reglamentlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish bo'yicha takliflar tayyorlashi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert kengashlarini tuzishi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondini shakllantirishda ishtirok etishi;

- umumiy va maxsus texnik reglamentlarga rioya etilishi ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nazoratni amalga oshirishi;

- Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkinligi;

- Davlat boshqaruvi organlari o'z vakolatlari doirasida maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlaydi, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritadi, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilishi ko'rsatib o'tilgan.

Qonunning 11-moddasida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalari ishlab chiqilgan umumiy va maxsus texnik reglamentlarni, texnik reglamentlarga o'zgartish va qo'shimchalarni ekspertizadan o'tkazish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish bo'yicha takliflar hamda ular yuzasidan xulosalar tayyorlash uchun texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari huzurida tuzilishi;

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalarining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshirilishi ta'kidlangan.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert kengashlari (12-modda) umumiy va maxsus texnik reglamentlarni, texnik reglamentlarga o'zgartish va qo'shimchalarni ishlab chiqish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish uchun davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari huzurida tuziladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert kengashlarining faoliyati O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondi (13-modda) O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan hamda o'z vakolati doirasida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan shakllantiriladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondi umumiy va maxsus texnik reglamentlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari, davlat boshqaruvi organlari o'zлari tasdiqlagan maxsus texnik reglamentlarni texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondiga belgilangan tartibda taqdim etadi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondini shakllantirish va yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

14-moddada texnik reglamentlar to'g'risidagi axborot berilgan. Amaldagi, ishlab chiqilayotgan va qabul qilingan texnik reglamentlar to'g'risidagi axborot yuridik va jismoniy shaxslar erkin foydalana oladigan bo'lishi kerak. Davlat sirlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlar tarqatilmasligi kerak.

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi yuridik va jismoniy shaxslarning so'rovlariga ko'ra:

- amaldagi, ishlab chiqilayotgan va qabul qilingan texnik reglamentlar to'g'risidagi ma'lumotlarni;

- mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini baholash tartib-taomili to'g'risidagi ma'lumotlarni;

- O'zbekiston Respublikasining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi xalqaro tashkilotlarga a'zoligi va xalqaro shartnomalardagi ishtiroki to'g'risidagi ma'lumotlarni;

- ishlab chiqilayotgan, qabul qilingan texnik reglamentlarni va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa normativ hujjatlarni e'lon qilishning rasmiy manbalari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

Qonunning 3-bobida texnik reglamentlar haqida so'z yuritilib, 15-moddada O'zbekiston Respublikasida texnik reglamentlarning quyidagi turlari: umumiyltexnik reglamentlar; maxsus texnik reglamentlar qo'llanilishi yoritilgan.

16-moddada esa texnik reglamentlarda mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligini ta'minlashga doir talablar o'rnatilib, ular quyidagilar bo'yicha belgilanishi mumkinligi aytilgan:

- biologik xavfsizlik;
- mexanik xavfsizlik;
- kimyoviy xavfsizlik;
- yadroviy va radiatsiyaviy xavfsizlik;
- yong'in xavfsizligi;
- elektr xavfsizligi;
- mashina va uskunalarini ishlatish (ulardan foydalanish) hamda utilizatsiya qilish xavfsizligi;
- elektromagnit mosligi;
- qurilish ishlari xavfsizligi;
- binolar, inshootlardan va ularga tutash hududdan foydalanish xavfsizligi;
- ekologik xavfsizlik;
- veterinariya xavfsizligi;
- sanoat va ishlab chiqarish xavfsizligi;
- portlash xavfsizligi;

- axborot xavfsizligi;
- o'lchovlarning va sinovlar usullarining bir xilligini ta'minlash.

Texnik reglamentlarda mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligini ta'minlashga doir boshqa talablar ham belgilab qo'yilishi mumkin.

17-modda. Texnik reglamentlarning mazmuniga bag'ishlangan. Texnik reglamentlar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi tavsiflari;

- xavfsizlik talablari belgilanayotgan mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning to'liq ro'yxati;
- atamalarga, o'rov-idishga, tamg'alarga yoki yorliqlarga hamda ularni aks ettirish qoidalariga va mahsulotni identifikatsiya qilishga doir talablar;
- mahsulotlar namunalarini olish va ularni sinovdan o'tkazish qoidalari;
- davlat nazoratini amalga oshirish tartibi;
- mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lgan sinovlar, o'lchovlar qoidalari va usullari.

Zararli mikroorganizmlar va qo'shimchalar, kasalliklar, tarqatuvchilar, ifloslantiruvchi moddalar, toksinlar, zararkunandalar va begona o'simliklar kirib kelishi yoki tarqalishi munosabati bilan yuzaga keladigan insonning hayoti va sog'lig'iga, atrof muhitga zarar yetkazilishi xavfi darajasi hamda zararni bartaraft etish hisobga olingan holda texnik reglamentlarda sanitariya, veterinariya-sanitariya va fitosanitariya chora-tadbirlari ham ko'rsatilishi kerak.

Sanitariya, veterinariya-sanitariya va fitosanitariya chora-tadbirlarida quyidagilar belgilab qo'yiladi:

- mahsulotga, uni sinash, tekshirish tartib-taomiliga, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya va fitosanitariya xulosasini berish tartibiga doir majburiy talablar;
- karantin va veterinariya-sanitariya qoidalari, shu jumladan hayvonlar va o'simliklarni tashish bilan bog'liq talablar;

- namunalar olish usullari va tartib-taomili, insonning hayoti va sog'lig'iga, atrof muhitga zarar yetkazilishi xavfini taddiq etish hamda baholash usullari, shuningdek texnik reglamentlarda ko'rsatilgan boshqa talablar.

Texnik reglamentlarda mahsulotning konstruktsiyasiga va bajarilishiga doir talablar bo'lmasligi lozim, insonning hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazilishi xavfi darajasi hisobga olingan holda mahsulotning konstruktsiyasiga va bajarilishiga doir talablar yo'qligi sababli mahsulot xavfsizligi ta'minlanmasligi hollari bundan mustasno.

Mahsulotlar, ishlar va xizmatlardan uzoq muddat foydalanimli oqibatida va (yoki) yo'l qo'yiladigan xavf darajasini aniqlash imkoniyatini bermaydigan boshqa omillar ta'siri sababli insonning hayoti va sog'lig'iga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga zarar yetkazadigan mahsulotlar, ishlar va xizmatlarga doir talablar texnik reglamentlarda bo'lmasligi kerak. Bunda texnik reglamentlarda ehtimol tutilgan zarar to'g'risida hamda insonning hayoti va sog'lig'iga, atrof muhitga zarar yetkazilishi xavfi qaysi omillarga bog'liq bo'lsa, shu omillar haqida iste'molchilarni xabardor qilishga doir talablar bo'lishi mumkin.

Texnik reglamentlarda mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir quyidagi maxsus talablar bo'lishi mumkin:

- qonun hujjatlarida belgilangan ayrim toifadagi fuqarolarning hayoti va sog'lig'i muhofaza qilinishini ta'minlaydigan maxsus talablar;
- texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda insonning hayoti va sog'lig'iga, atrof-muhitga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga tahdid soluvchi transchegaraviy xavfli ishlab chiqarish ob'ektlariga oid maxsus talablar.

Davlat sirlaridan va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirdan iborat bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan texnik reglamentlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishlab chiqiladi va qabul qilinadi.

Texnik reglamentlar tugal bo'lib, O'zbekiston Respublikasining butun hududida to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi hamda ularga faqat belgilangan tartibda o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yo'li bilan o'zgartirilishi mumkin.

18-moddada belgilab qo'yilganki, texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarini shakllantirish texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa vakolatli davlat organlarining hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining o'z vakolatlari doirasidagi takliflari inobatga olingan holda O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

Texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi va belgilangan tartibda e'lon qilinadi.

19-moddada texnik reglamentlarni ishlab chiqish tartibi haqida ma'lumot berilgan bo'lib, texnik reglamentlar texnik reglamentlarni ishlab chiqishning tasdiqlanadigan dasturlariga muvofiq ishlab chiqiladi.

Texnik reglamentlarni ishlab chiquvchilar belgilangan tartibda:

- texnik reglamentlar ishlab chiqilishi haqidagi xabarlarni e'lon qiladi;
- texnik jihatdan tartibga solinishi lozim bo'lgan mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning guruhlari hamda turlarini belgilaydi;
- mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning texnik reglamentlarda belgilanadigan talablarga muvofiqligini baholash usullarini belgilaydi;
- ishlab chiqilgan texnik reglamentlarni kelishib oladi;
- ishlab chiqilgan texnik reglamentlardan foydalanish erkinligini ta'minlaydi.

Texnik reglamentlarni ishlab chiquvchilar ishlab chiqilgan texnik reglamentlar rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran ikki oy ichida ularning muhokama qilinishini ta'minlaydi.

Texnik reglamentlarni qabul qilish tartibi quyidagicha (20-modda):

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan umumiyligi texnik reglamentlar ekspertizadan o'tkazish uchun texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlariga ular faoliyatining yo'nalishi bo'yicha topshiriladi.

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi tegishli ekspert komissiyasining xulosasi

olinganidan keyin umumiy texnik reglamentlarni tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga belgilangan tartibda yuboradi.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan maxsus texnik reglamentlar ekspertizadan o'tkazish uchun texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlariga ular faoliyatining yo'nalishi bo'yicha topshiriladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari, davlat boshqaruvi organlari o'z faoliyatining yo'nalishlari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi tegishli ekspert komissiyasining xulosasi asosida maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlaydi.

Tasdiqlangan umumiy va maxsus texnik reglamentlar rasmiy e'lon qilingan paytdan e'tiboran kamida olti oy o'tgach amalga kiritiladi.

Umumiy va maxsus texnik reglamentlarni e'lon qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

21-moddada texnik reglamentlarni ishlab chiqishda mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning xavfsizlik mezonlarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi milliy va xalqaro normativ hujjatlardan foydalanilishi; texnik reglamentlarda daliliy baza sifatida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning matnlari to'liq yoki qisman keltirilishi ko'rsatilgan.

22-moddada texnik reglamentlarga rioya etish barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiyligi hamda texnik reglamentlar amalga kiritilgach, standartlashtirish bo'yicha ularda ko'rsatilgan mahsulotlar, ishlar va xizmatlarga doir ilgari qabul qilingan tegishli normativ hujjatlar majburiylik xususiyatini yo'qotishi hamda belgilangan tartibda qo'llanilishda ixtiyorilik kasb etishi aniqlab berilgan.

Texnik reglamentlarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati (23-modda) texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlarining va davlat boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qonunning 4-bobi yakunlovchi qoidalarga bag'ishlangan bo'lib, 24-moddada texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ishlarni moliyalashtirish tartibi belgilab berilgan.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ishlarni moliyalashtirish respublika byudjeti va yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan quyidagilar moliyalashtiriladi:

- umumiy texnik reglamentlarni ishlab chiqish;
- umumiy va maxsus texnik reglamentlarni ekspertizadan o'tkazish;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondini yuritish;

- texnik reglamentlarga rioya etilishi uslidan davlat nazoratini amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasining texnik jihatdan tartibga solish bo'yicha xalqaro tashkilotlardagi a'zoligi bilan bog'liq xarajatlar.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi (25-modda).

Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risidagi qonun hujjatlarini (26-modda) buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

27-moddada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirishi;

- davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlashlari zaruriy holat ekanligi aytilgan.

28-moddada ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kirishi ta'kidlangan.

### **3.2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga doir texnik reglamentlar**

- «Oziq-ovqat mahsulotlariga tegib turadigan qadoqlarning xavfsizligi to'g'risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.476-021:2017) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 iyuldaggi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu texnik reglament rasmiy e'lon qilingan paytdan

e'tiboran o'n ikki oy o'tgandan keyin amalga kiritiladi. 1) «Oziq-ovqat mahsulotlariga tegib turadigan qadoqlarning xavfsizligi to'g'risida»gi Umumiy texnik reglament amalga kiritilgandan keyin, o'rnatilgan tartibda qo'llanilish ixtiyoriyligiga ega bo'ladigan va majburiylik tusini yo'qotadigan standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar ro'yxati. 2) «Oziq-ovqat mahsulotlariga tegib turadigan qadoqlarning xavfsizligi to'g'risida»gi Umumiy texnik reglamentda mahsulotlar va xizmatlarning belgilangan talablarga muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lган, mahsulotning namunalarini olish, sinovlari va o'lchovlari usullarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ro'yxati.

- «Oziq-ovqat mahsulotini tamg'lash yuzasidan uning xavfsizligi to'g'risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.490-022:2017) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 12 iyuldaggi 490-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu texnik reglament rasmiy e'lon qilingan paytdan e'tiboran o'n ikki oy o'tgandan keyin amalga kiritiladi.

- «**Yog'-moy mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida»gi** umumiy texnik reglamenti (UzTR.520-023:2017) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyuldaggi 520-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu texnik reglament rasmiy e'lon qilingan paytdan e'tiboran o'n sakkiz oy o'tgandan keyin amalga kiritiladi.

- «**Don qayta ishlash mahsulotlari xavfsizligi to'g'risida»gi** Maxsus texnik reglamenti (MTR.007-2016) «O'zstandart» agentligining 17.11.2016 yildagi MTR-7 – sonli Qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu texnik reglament 2018 yil 1 mart kunidan boshlab amalga kiritiladi. 1) «Don qayta ishlash mahsulotlari xavfsizligi to'g'risida»gi Maxsus texnik reglament amalga kiritilgandan keyin, o'rnatilgan tartibda qo'llanilish ixtiyoriyligiga ega bo'ladigan va majburiylik tusini yo'qotadigan standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar ro'yxati. 2) «Don qayta ishlash mahsulotlari xavfsizligi to'g'risida»gi Maxsus texnik reglamentda mahsulotlar va xizmatlarning belgilangan talablarga muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lган, mahsulotning namunalarini olish, sinovlari va o'lchovlari usullarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ro'yxati.

- «**Non va makaron mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida»gi** Maxsus texnik reglamenti (MTR.008-2017) «O'zstandart» agentligining 27.03.2017 yildagi MTR-8 – sonli Qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu texnik reglament 2018 yil 1 sentyabr kunidan boshlab amalga kiritiladi. 1) «Non va makaron mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida»gi Maxsus texnik reglament amalga kiritilgandan keyin, o'rnatilgan tartibda qo'llanilish ixtiyoriyligiga ega bo'ladigan va majburiylik tusini yo'qotadigan standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar ro'yxati. 2) «Non va makaron mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida»gi Maxsus texnik reglamentda mahsulotlar va xizmatlarning belgilangan talablarga muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lган, mahsulotning namunalarini olish, sinovlari va o'lchovlari usullarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ro'yxati.

- «**Sut va sut mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida»gi** umumiy texnik reglamenti (UzTR.474-020:2017) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 iyuldagagi 474-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu texnik reglament rasmiy e'lon qilingan paytdan e'tiboran o'n sakkiz oy o'tgandan keyin amalga kiritiladi. 1) «Sut va sut mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida»gi Umumiy texnik reglament amalga kiritilgandan keyin, o'rnatilgan tartibda qo'llanilish ixtiyoriyligiga ega bo'ladigan va majburiylik tusini yo'qotadigan standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar ro'yxati. 2) «Sut va sut mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida»gi Umumiy texnik reglamentda mahsulotlar va xizmatlarning belgilangan talablarga muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lган, mahsulotning namunalarini olish, sinovlari va o'lchovlari usullarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ro'yxati.

- «**Go'sht va go'sht mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida»gi** umumiy texnik reglamenti (UzTR.36-030:2018) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 yanvardagi 36-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu texnik reglament rasmiy e'lon qilingan paytdan e'tiboran 18 oy o'tgandan keyin amalga kiritiladi. 1) «Go'sht va go'sht mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida»gi Umumiy texnik reglament amalga kiritilgandan keyin, o'rnatilgan tartibda qo'llanilish ixtiyoriyligiga ega bo'ladigan va majburiylik tusini

yo'qotadigan standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar ro'yxati. 2) «Go'sht va go'sht mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida»gi Umumiy texnik reglamentda mahsulotlar va xizmatlarning belgilangan talablarga muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lган, mahsulotning namunalarini olish, sinovlari va o'lchovlari usullarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ro'yxati.

### **Nazorat savollari.**

1. «Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida»gi qonun qachon qabul qilingan?
2. Texnik reglamentlar va ularning turlari.
3. Oziq-ovqat mahsulot texnik reglamentlari.

## **IV BOB. Mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni standartlashtirish va kodlash.**

### **4.1. YAN kodlash tizimi.**

Ba'zan biror mahsulot xarid qilganimizda uning ko'rinarli joyida yoki etiketkasida xar xil qalnlikdagi chiziqlar va raqamlar bilan belgilangan shakllarni ko'rishimiz mumkin, Ularga shtrix-kod nomi berilgan. Xo'sh, shtrix-kodlar nima va qachon paydo bo'lgan?

Shtrix kodlarni mahsulotlarga nisbatan tatbiq etish g'oyasi ilk bora 30-yillarda AQShning Garvard biznes mакtabida yaratilgan bo'lib, undan amalda foydalanish bir necha o'n yillardan so'nggina, ya'ni 60-yillardan boshlangan. Shtrix kodlarni dastlabki qo'llovchilar temiryo'lchilar bo'lib, shu usul orqali temir yo'l vagonlarini identifikatsiyalashgan. Mikroprotsessor texnikasining gurkirab rivojlanishi 70-yillardan boshlab shtrix kodlardan keng ravishda foydalanish imkonini yaratdi. 1973 yil AQShda Mahsulotning Universal Kodi (IRS) qabul qilinib, 1977 yildan boshlab esa Yevropa kodlash tizimi EAN (European Article Numbering) ta'sis etildi va hozir undan nafaqat Yevropada, balki boshqa mintaqalarda ham keng ravishda foydalani moqda.

Shtrix kod ketma-ket almashib keluvchi qora (shtrix) va oq (probel) rangli,



turli qalnlikdagi chiziqlardan iborat bo'lib, bu chiziqlarning o'lchamlari standartlashtirilgan 8-rasmida ko'rsatilgan. Shtrix-kodlar maxsus optik qurilmalar - skanerlar yordamida o'qishga mo'ljallangan. Uning vositasida mikroprotsessorlar orqali shtrixlar

raqamlarga dekoderlanib, mahsulot haqidagi ma'lumotlar kompyuterga uzatiladi. Ko'pgina iqtisodiy rivojlangan davlatlarda mahsulotning o'ramida (upakovkasida) shtrix kodning bo'lishi majburiy sanaladi. Aks holda savdo tashkilotlari mahsulotdan voz kechishlari mumkin. Bu xalqaro savdoga ham tegishlidir. Ushbu tizimning iqtisodiy jihatdan samaraliligi mahsulotning 85 foizidan ko'pi kodlashtirilganida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari mahsulotga bo'lgan talab va

ehtiyojlarni shakllantirish, jamlash, hisobga olish, mahsulotning kelish-ketishini hisob qilib borish, muhosiblik hisoblarida va hujjatlarni rasmiylashtirishda, hamda mahsulotlarni saqlash va sotuvidagi nazoratlarni amalga oshirishda alohida o'rin tutadi,

Asosan EANning ikki kodidan ko'proq foydalaniladi: 13 razryadli va 8 razryadli raqamli kodlar. Bunda eng ingichka shtrix birlik sifatida olinadi. Har bir raqam yoki (razryad) ikki shtrix va ikki probeldan iborat. 13 razryadli kodning tarkibida quyidagi kodlar ko'rsatiladi;

- davlat kodi («davlat bayrog'i»);
- korxona (firma)- tayyorlovchi kodi;
- mahsulotning kodi;
- nazorat soni.

EAN assotsiatsiyasi turli davlatlar uchun kodlar ishlab chiqqan bo'lib, ushbu kodlardan foydalanish uchun markazlashgan tarzda litsenziyalar tavsiya etadi. Masalan, Frantsiya uchun davlat kodi sifatida 30-37, Italiya uchun 80-87 oraliqlari tavsiya etilgan. Ba'zi davlatlarning kodlari uch xonali sonlardan iborat. Masalan, Gretsiya - 520, Rossiya - 460, Braziliya - 789.

Tayyorlovchi korxonaning kodi har bir davlatda tegishli organlar tomonidan tuziladi. Odatda, bu kod beshta raqamdan iborat bo'lib, davlat kodidan keyin keladi.

Mahsulot kodi tayyorlovchi tomonidan tuziladi va u ham beshta raqamdan iborat bo'ladi. Bu kodning rasshifrovkasi standart emas, u mahsulotga talluqli bo'lgan muayyan xususiyatlarni (belgilarni) yoki faqat tayyorlovchining o'zigagina ma'lum bo'lgan va u mahsulotning qayd etish tartib raqamini ifodalashi ham mumkin. Lekin buni ixtiyoriy bermaslik maqsadida shtrixli kodlarni belgilash markazlashtirilgan tarzda olib boriladi.

Nazorat soni EAN algoritmi bo'yicha kodni skaner vositasida to'g'ri o'qilganligini tekshirish uchun xizmat qiladi.

EAN-8 kodi uzun kodlarni belgilab bo'lmaydigan kichik o'ramlar (upakovkalar) uchun mo'ljallangan, EAN-8 kodi quyidagi kodlar tartibidan iborat:

- davlat kodi («davlat bayrog'i»);

- korxona (firma)- tayyorlovchi kodi;
- nazorat soni.

Ba'zan tayyorlovchi korxona kodining o'rniga mahsulotning qayd etish tartib raqami keltirilishi ham mumkin.

Raqamlar qatori skaner uchun emas, balki xaridorlar uchun mo'ljallangan. Talabgor (xaridor) uchun ma'lumot faqat mahsulot tayyorlangan davlatni bildirish bilan chegaralanadi, chunki davlat kodi maxsus nashrlarda va ma'lumotnomalarda keltirilib turadi yoki ma'lumot bazalarida va banklarida saqlanishi mumkin. To'liq shtrixli kod tashqi savdo tashkilotlariga yoki savdo ob'ektlariga mahsulotning kontrakt (shartnoma) talablariga mos kelmaydigan parametrlari va ko'rsatkichlari borasida aniq manzilga raddiya yoki norozilik bildirish imkoniyatiga ega.

O'zbekiston Respublikasida shtrix kodlar tobora keng tatbiq etilib bormoqda. 1999 yili O'zstandart qoshidagi metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash va malaka oshirish institutida shtrix kodlar masalalari bilan shug'ullanuvchi markaz tashkil etildi. Ushbu markazning ta'sis etilishidan maqsad - mahsulotlarni avtomatlashtirilgan tarzda identifikatsiyalash borasidagi muammolarni hal etish va bu faoliyatni keng ravishda targ'ib etishdir, Albatta, bunda xalqaro me'yoriy hujjatlarni hisobga olgan holda kodlashning standartlashtirilishi alohida ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasida shtrixli kodlashning tatbiq etilishi eng avvalo, 1996 yilning 26 aprelda qabul qilingan «Iste'molchilarining huquqlarini ximoya qilish to'g'risida» nomli Qonunining 4-moddasida ko'rsatilgan - iste'molchining xarid qilinayottan mahsulot haqida zarur va ishonchli ma'lumot olish huquqini amalga oshirishda yangi zamin yaratadi.

Shtrixli kodlash ishlab chiqarish korxonalari uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining tatbiq etilishini osonlashtiradi;
- ishlab chiqarish, mahsulotni saqlash va realizatsiya qilish kabi faoliyatlardagi hisob-kitob ishlarining samaradorligini oshiradi;
- resurslarni chuqur tahlil qilish imkoniyatini beradi;


- hujjatlar aylanishini qisqartiradi;
- mahsulotni realizatsiya qilish va harakati haqidagi ishonchli ma'lumotlarni muntazam ravishda yig'ishni yo'lga qo'yish mumkin;
- boshqaruv va nazorat idoralariga tezkor ravishda mahsulot xususidagi ma'lumotlarni tavsiya etish.

Biroq xaridor sotib olayotgan mahsulotining faqat tayyorlangan davlati borasidagi ma'lumotnigina emas, balki tegishli barcha ma'lumotlarni ham bilishni istaydi. Bu muammo ham vaqtি kelib standartlashtirish yo'li bilan tasdiqlanuvchi standartlarning majburiy talablarining ro'yxatini kengaytirish lozim bo'ladi.


**Mahsulotning shtrixli kodlanishi uchun ayrim davlatlarning EAN kodi.**

2-jadval.

Код	Страна	Код	Страна	Код	Страна	Код	Страна
00-13	США и Канада	488	Таджикистан	627	Кувейт	784	Парагвай
200-299	Для внутренних нужд предприятий	489	Гонконг	628	Саудовская Аравия	786	Эквадор
30-37	Франция	50	Великобритания	629	ОАЭ	789	Бразилия
380	Болгария	520	Греция	64	Финляндия	80-83	Италия
383	Словения	528	Ливан	690-692	КНР	84	Испания
385	Хорватия	529	Кипр	70	Норвегия	850	Куба
387	Босния и Герцеговина	531	Македония	729	Израиль	858	Словакия
400-440	Германия	535	Мальта	73	Швеция	859	Чехия
45 и 49	Япония	539	Ирландия	740	Гватемала	860	Сербия
460-469	Россия	54	Бельгия и Люксембург	741	Сальвадор	865	Монголия
470	Киргизия	560	Португалия	742	Гондурас	867	КНДР
471	Тайвань	569	Исландия	743	Никарагуа	869	Турция
474	Эстония	57	Дания	744	Коста-Рика	87	Нидерланды
475	Латвия	590	Польша	745	Панама	880	Южная Корея
476	Азербайджан	594	Румыния	746	Доминиканская Республика	884	Камбоджа
477	Литва	599	Венгрия	750	Мексика	885	Таиланд
478	Узбекистан	600-601	ЮАР	759	Венесуэла	888	Сингапур
479	Шри-Ланка	609	Маврикий	76	Швейцария	890	Индия
480	Филиппины	611	Марокко	770	Колумбия	893	Вьетнам
481	Белоруссия	613	Алжир	773	Уругвай	899	Индонезия
482	Украина	619	Тунис	775	Перу	90-91	Австрия
484	Молдова	621	Сирия	777	Боливия	93	Австралия
485	Армения	622	Египет	779	Аргентина	94	Новая Зеландия
486	Грузия	625	Иордания	780	Чили	955	Малайзия
487	Казахстан	626	Иран				




4.2 -расм. 8 разрядли ЕАН коди



4.1. -расм. 13 разрядли ЕАН

#### 4.2. QR- kodlash to'g'risidagi ma'lumotlar.



4.3. QR-код тўғрисидаги асосий тушунчалар

QR-kod –inglizcha “Quick Response” suzlaridan olingan bulib, Quick-tez, Response-javob, ya’ni tezkor javob (bistriy otklik) ma’nosini bildiradi. Kod bu belgi va ma’lumot beruvchi ob’ekt. Kaysdir ob’ektga ma’lumot berish uchun xizmat kiladi. Uning imkoniyatlari katta 9-rasm berilgan.

- Shtrix-kod Yaponiyaga mashxurlik olib keldi. Lekin bu ularni koniktirmadi va QR-kodni ishlab chikarishdi. Eski shtrix-kodga nisbatan bu ingichka nur bilan skaner kiladi va ancha aniklikda ishlaydi, ikki kamerali ta'svirni xam kuradi.

- QR kodni eng asosiy muvofakkiyati shundaki u predmetni onson taniiy oladi (bu esa sotuvda, ishlab chikarishda, logistikada ancha kul keladi).

- Bitta QR-kod ichida juda kup simvollar joylashtirish mumkin.

- Ushbu tizim 1994-yilda Yaponiyaning Denso-Wave kompaniyasi tomonidan yaratilgan. Bitta QR-kod 7089 ta rakam, 4296 ta rakam-xarf, ikkilik sanok sistemasida 2953 bayt yeki 1817 ta ieroglivilarni uz ichiga olishi mumkin.

- U ok fonda 3ta turtburchak va setkali kora kvadratlardan tashkil topgan

- QR-kod kora turtburchaklardan tashkil topgan bulib, bu kora turtburchaklar ok fonga joylashtirilgan buladi. Bu ok fonga joylashtirilgan kora turtburchaklarni xozirgi kunda juda kup joylarda kurishimiz mumkin. Masalan, reklama plakatlarida, afishalarda, jurnal varoklarida va xatto tashrif kogozlarida xam ularga duch kelamiz. Bu shtrix kod oddiy tushunarsiz rakamlar emas. QR-kod juda kup malumotlarga ega bulgan va juda foydali zamonaviy tizim xisoblanadi.

- QR-kod maxsus tarzda kodlangan kandaydir bir ma'lumot, kvadrat kurinishdagi tasvir.

- Bu oddiy matn , internet manzili, elektron pochta, telefon rakami, ma'lum bir joyni joylashgan urni va boshka ma'lumotlar bulishi mumkin. Xozirgi kunda kameraga ega zamonaviy mobil alokalar kvadrat kurinishidagi ta'svir ostida yashiringan ma'lumotlarni onson ukish imkoniyatini bermokda.Buning uchun bor yugi mobil aloka vositasining kamerasini QR- kodga yunaltirilgan xolda undagi kodlangan ma'lumotlarga ega bulishimiz mumkin.

- QR- kod - turt standart tartibli kodlash tizimi xisoblanib, malumotlarni saklashda va shu bilan bir katorda ularni kengaytirishda foydalaniladi.

Xozirda QR-kodni ukish uchun juda kup dasturlar mavjud.Ulardan eng kup tarkalgani: iPhone kurilmalari uchun Bakodo, Android tizimida ishlovchi kurilmalar

uchun esa Barcode scanner. Ma'lumotlarni bepul QR-kodga aylantirib beruvchi onlayn saytlar mavjud. Bular: [www.qrcoder.ru](http://www.qrcoder.ru)

- QR- kod tizimi avtomobil ishlab chikarish sanoatida ommalasha boshladi. Bu tizim yordamida katta xajmdagi malumotlarni tezkorlik bilan maxsulotga joylashtirish yulga kuyildi.

QR-kod 1994 yilda Yaponianing DENSOWAVE kompaniyasi tomonidan ishlab chikilgan. Yaponiyalik avtomobilsozlar texnik ishlab chikarish progressini tezlashtirish maksadida dastlab oddiy shtrix kodlardan foydalanishgan

- Lekin malumotlar uchun joy ozlik kildi (30 ta belgigacha), shuning uchun buning boshka yulini izlashga tushdilar.Oddiy shtrix kod bilan solishtirilganda QR- kod ancha samarali tizim bulib chikdi. Uning ustunligi oydinlashdi. Bu tizim osongina malumotlarni skaner kilib kolmay, balki 7089 rakam yoki 4296 xarfni uziga jamlashtira olar edi.

- QR-kod tizimini birinchilardan bulib Yaponianing «Toyota» zavodi kabul kildi. Dastlab bu tizim bir kancha noroziliklarga sabab buldi. Keyinchalik bu ma'lumot tizimi ommalasha boshladi va butun Yaponiyaga tarkaldi. SHtrix kodlar reklama plakatlarida , malumotlar jadvallarida va boshka ommabop joylarda kurina boshladi.

- O'nli sistemadagi rakamlarni xisoblash tizimi-7089

- O'nli sistemadagi rakamlarni va lotin xarfli xisoblash-4296

- Baytlarda-2953

- Ierogliflarda-1817

- Mobil telefonga joylashtirilgan QR-kod ukish uchun fotokamera va maxsus dastur kerak. Masalan,QRDroid dasturi Android uchun yoki QRReaderforiPhone dasturi iOS uchun. QR-kodni ukish uchun avval dasturni tozalab olish kerak. Keyin kod tulik kameraga tugri kelishi va moslamaning uzi xarakatsiz bulishi kerak(kimirlatib bulmaydi ).

- QR-koddan nafakat rakamlash tizimida balki kuplab ishlab chikarish tarmoklarida va axoliga xizmat kursatish tizimlarida xam kullanilmokda. QR-

kod kitobsevarlarga xam katta yordamchi buldi. Ushbu yilning yoz oyida MTS Kievda uzining birinchi mobil kutubxonasini ochdi. Smartfon yoki planshet uchun elektron namuna, nusxa olish uchun shunchaki kitoblar turgan javon tagidagi yoki kitob mukovasiga joylashtirilgan shtrixni skaner kilish kifoya. SHunda uning rakamli kurinishini yuklab olish mumkin buladi. Xizmat bepul. Bu kabi kutubxonani MTS fakatgina Kievda emas , balki , Jitomir , Vinnitsiya , Lvov va Odesselarda xam ochildi.

- Aloxida Micro QR mavjud.



**4.4-rasm QR-kodning umumiy ko'rinishi**

Alohdida kurinishdagi sigimi 35 rakamli kichik

- QR-kod xam mavjud 10-rasmda.

- Foydali malumotlarni saklash uch belgili oddiy QR-kod bilan takkoslanganda ananaviy QR-kod kumagida sezilarli darajada yaxshilandi, bor yugi birgina belgi kumagida. Shu sababli malumotlar uchun belgilangan maydon ancha boshatildi. Bundan tashkari, oddiy QR kod kod atrofida kalinligi kamida 4 modulga teng bulgan bush maydon talab kiladi,

- Micro QR kod esa kalinligi bor yugi 2 modulga teng bolgan bush maydon talab kiladi. Malumotlarni saklashda katta foyda keltirayotgan Micro QR kod kamrovi kattalashmokda, ananaviy QR kod bilan takkoslaganda. Uning ustunligi shunda ediki, Micro QR kod kodlash jarayonida katta joy talab kilmas edi.

Analoglar yemirilish boskichidagi xatolik QR kodga karaganda Micro QR kodda 4 versiyada buladi. Ular: M1-M2-M3-M4.

- Rakamli kodlash.

- Bu kodlash usuli 3 ta timsol uchun 10 ta bit talab kiladi. Barcha timsollar ketma-ketligi guruxlarga bulinadi 3 rakamli va xar bir gurux (uchxonali rakam)10-bitli ikkinchi rakamga kuchiriladi va ketma-ketlikda bitlarga kushiladi. Agar timsollarning umumiy mikdori 3 ga yetmasa, u xolda oxirida 2 ta timsol koladi, kolgan ikki timsolli rakam 7 ta bitga kodlanidi, 1 ta timsol kolsa, 4 ta bitga kodlanadi.

- Masalan , «12345678» li katorni kodlash kerak. Ketma-ket rakamlar bulinadi:123, 456 va 78, keyin xar bir rakam ikkinchi kurinishga utkaziladi: 0001111011, 0111001000 va 1001110, bularning xammasi bitta katta bitli guruxga birlashtiriladi: 000111101101110010001001110

- Xarfli- rakamli kodlash.

- Rakamli kodlashga karaganda, bu kodlash 11 bitli axborot uchun 2 timsol talab kiladi. Timsollar ketma-ketligi guruxlarga bulinadi ikkitadan, guruxda xar bir timsol jadvalga muvofik kodlanadi «Xarfli-rakamli kodlashda timsollar ma'nosi ». Birinchi timsol 45 ga kupaytiriladi, keyin xosil bulgan mikdorga ikkinchi timsol kushiladi. Xosil bulgan rakam 11 bitli ikki xonali rakamga kuchirilib, bitlar ketma-ketligiga kushiladi. Agar oxirgi guruxda bitta timsol kolsa, u xolda u 6-bitli rakamga kodlanadi. Masalan: «PROOF». Timsollar ketma-ketligi buyicha guruxlarga bulamiz:PR, OO, F. Xar bir guruxda timsol bulishi shart. (jadvalga karaymiz): PR-(25,27), OO-(24,24), F-(15).  $25*45+27=1152$ ,  $24*45+24=1104$ ,  $15=15$ . Bularning xar birini ikkinchi kurinishga utkazamiz:  $1152=10010000000$ ,  $1104=10001010000$ ,  $15=001111$ .Bitta ketma-ketlikda birlashtiramiz:  $1001000000010001010000001111$ .

- Baytli kodlash .

- Xar kanday timsol ni bu usul bilan kodlash mumkun. Kiruvchi timsollar okimi xar kanday kod buyicha kodlanadi (tavsiya etilgan UTF 8ga), keyin ikki yoklama kurinishga kuchiriladi, undan keyin bitta bitoviy yunalishga birlashtiriladi.

Masalan «Mir» suzini Unicode (HEX) v UTF-8 buyicha kodlashtiramiz M-D09C; i-D0B8; r-D180. Xar bir kursatkichni ikkilamchi sanov buyicha ugiramiz: D0=11010000, 9C =10011100, D0=11010000, B8=10111000, D1=11010001 va 80=10000000; Bir yunalish bitga kushamiz: 11010000 10011100 11010000 10111000 11010001 10000000.

### **Nazorat savollar**

1. Shtrix kodlar nima uchun qo'llaniladi?
2. Shtrix kodlarni qo'llashning afzalligi va kamchiliklari haqida nimalarni bilasiz?
3. Hozirgi kunda shtrix kodlashning EAN tizimidan tashqari yana qanday tizimlar mavjud?
- 4.QR-kodlar nima uchun qo'llaniladi?

## V BOB. ISO 22000 standarti asosida mahsulotlarning xavfsizligiga doir asosiy tushunchalar.



5.1-расм. ICO 22000 сертификат

Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) 2005 yil avgustda oziq-ovqat mahsulotlariga murojaat etuvchi qurilmalar ta'minotchilari, idishlar, qadoqlash, oziq-ovqat qo'shimchalari, omuxta-em, o'g'itlar va h.k. ishlab chiqarishga jalb etilgan ixtiyoriy korxonalar uchun Oziq-ovqat mahsulotlarini xavfsizligi menejment tizimlari (OOMXMT) ISO 22000:2005 xalqaro standartini (5.1-rasm) qabul qildi. Shuningdek, standart chakana savdoda, restoran biznesida, yuvish, dezinfiktsiyalash, zararkunandalar bilan kurashuv bo'yicha chora-tadbirlarda, saqlash, tashish va mahsulotni tarqatishdagi tarli xil xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha biznesda foydalanish uchun ham qo'llaniladi.

Evropa Ittifoqi mamlakatlari uchun 2005 yil 1 iyuldan kirish komponentalari (xom ashyo)dan boshlanib, yakuniy mahsulotni iste'molchiga yetkazishgacha texnologik zanjirning aniq va ravshanligi majburiydir.

Evropaning ko'plab mamlakatlarida va shuningdek, O'zbekistonda ham oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda sifati va xavfsizligi talablarini o'rnatuvchi milliy standartlar va boshqa me'yoriy hamda qonuniy hujjatlar mavjud.

Hozirgi kunda O'zbekistonda sifat menedjmenti tizimiga talablarni o'rnatuvchi O'z DSt ISO 22000:2010 "Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi menedjmenti tizimi. Oziq-ovqat mahsulotlarini yaratish zanjirida qatnashuvchi tashkilotlarga talablar" standarti qabul qilingan va amalga joriy etilgan.

Standartning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligi fermalaridan boshlanib to do'kon savdosigacha tugagan oziq-ovqat zanjiri doirasida oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini boshqarish global uyg'unlashtirish bo'lib hisoblanadi.

ISO 22000:2005 – bu standartlar oilasining birinchi standarti bo'lib u o'z


ichiga quyidagi hujjatlarni qamrab oladi:

ISO/TS 22004:2005 «Oziq-ovqat xavfsizligi tizimi - ISO 22000:2005 ni qo'llash bo'yicha qo'llanma» bo'lib, u 2005 yil noyabrda nashr etilgan.

ISO/TS 22003:2007 «Oziq-ovqat xavfsizligi tizimi - Oziq-ovqat xavfsizligi tizimi sertifikatlashtiruvchi va audit o'tkazuvchi idoralar uchun talablar» deb nomlanadi. Ushbu sertifikatlashtirish idorasini akkreditlashtirish bo'yicha uyg'unlashtirilgan qo'llanma bo'lib, Standartga muvofiq Oziq-ovqat xavfsizligi tizimi auditni bo'yicha qoidalarni aniqlaydi. 2006 yilning birinchi kvartalida nashr etilgan.

ISO 22005 «Oziq-ovqat mahsulotlari va omuxta-em zanjirida kuzatuvchanlik – Umumiy tamoyillar va loyihalashtirish va ishlab chiqish bo'yicha qo'llanma».

5.2-rasmda standartning muayyan talablariga muvofiq asosiy elementlari qatorida kontseptsiyasi ko'rsatilgan.



ISO 22000 xalqaro standarti talablarini tushuntirish uchun Xalqaro standartlashtirish tashkiloti qabul qilgan ISO/TS 22004:2015 texnik shartiga asosan taqdim etilgan modelga muvofiq menejment tizimini qurishda foydalanish mumkin.

ISO 22000 seriyali xalqaro standartlarni joriy etishga faqat Yevropa kompaniya va firmalari kirishib ketishgan. Mahalliy amaliyotda yangi seriyalarni

navbatma-navbat joriy etish yaqin kelajakda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ijobjiy bo'lishiga zamin yaratadi.

ISO 22000:2015 xalqaro standarti menedjment tizimiga boshqa standartlaridan mustaqil holda qo'llash mumkin. Bunda u birlashgan xavfsizlik va sifat menejmenti tizimini yaratishni yengillashtirib, ikkala standart moslashuvchanligini kuchaytirish uchun ISO 9001:2008 standarti bilan uyg'unlashgan.

ISO 22000:2015 xalqaro standarti oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligiga qonunchilik talablari afzalligini istovchi tashkilotlarga talablarni aniqlashtirishga yo'naltirilgan. Bu xalqaro standart oziq-ovqat tarmog'inining (ishlab chiqarishdan to iste'molgacha bo'lган) ixtiyoriy tashkilotlari shuningdek, bu ishlab chiqarishni ta'minlash bilan bog'liq bo'lган (bu tarmoq uchun qadoqlash materiallari, qo'shimchalar va ingredientlar qurilmalar ishlab chiqaruvchi) tashkilotlari uchun ham mo'ljallangan. ISO 22000:2015 birlashgan boshqaruv tizimini, masalan, ISO 9001:2008 va HACCP birlashtirib joriy etishni istagan kompaniyalar uchun ishlab chiqilgan.

Shunday qilib, ISO 22000 standartlarini oziq-ovqat zanjiridagi barcha turdag'i: Hayvonlar uchun ozuqa ishlab chiqarishdan tortib to xom-ashyo ishlab chiqaruvchi, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, tashish va saqlashni tashkillashtiruvchi, subpudratchilar, umumiy ovqatlanish tashkilotlari va chakana savdo do'konlarigacha bo'lган tashkilotlarga qo'llaniladi.

## **5.2. ISO 22000 xalqaro standarti ichki va tashqi afzallikkleri.**

Ichki afzallikkleri:

- Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligining barcha parametrlarini qamrab oluvchi texnologik jarayonning barcha bosqichlariga tizimli yondashish;
- Mahsulot nuqsonini kechiktirmay, vaqtida aniqlash va oldini olish;
- Mahsulot xavfsizligiga ta'sir qiluvchi parametrлarni nazorat qilish
- Oziq-ovqat mahsulotlari xavsizligini ta'minlashda birdek ma'sullikni belgilamoq;
- Ishlab chiqarishda umumiy hajmdagi nuqsonlar sonini kamaytirish;
- ISO 9001 xalqaro standarti va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi menejment tizimi bilan integratsiyasining qo'shimcha imkoniyatlari;

- Davlat nazorat organlarini ruxsatdan tashqari aralashuvini cheklash.

Tashqi afzalliklari:

- Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga iste'molchilar ishonchini oshirish;
- Mahsulotlarni yangi tashqi bozorlarga chiqarish;
- Turli xil tender va konkurslarda ishtirok etishdagi qo'shimcha ustunliklarga;

- Ishlab chiqarilayotgan mahsulotni raqobat bardoshligini oshirish;
- Investitsiyaga jalg qilishni oshirish;
- Mahsulot sifati barqarorligi va xavfsizlikni ta'minlash hisobiga reklamatsiyalar sonini pasaytirish;
- Sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchining mavqeini ko'tarish.

### **5.3. ISO 22000 standart to'g'risida.**

OOMXMT tashkilotning barcha turdag'i boshqaruv faoliyatları bo'yicha integratsiyalashganligini va yanada samaradorligini namoyon etadi. Butun dunyoda tan olingan ISO 9000 standartida keltirilgan sifat menedjmentining sakkizta tamoyili bunday strukturali boshqaruv tizimini qurish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Va u ISO 22000 doirasida qo'llanilishi ISO 9001:2008 standarti bilan talablarni uyg'unlashuvi hisobiga ta'minlanadi. Uyg'unlashuvning asosiy jihatlaridan biri ISO 22000 tuzilmasi ya'ni OOMXMTga talablar quyidagi bo'limlarda keltirilgan:

- Umumiy talablar.
- Hujjatlarga talablar.
- Rahbariyatning javobgarligi.
- Resurslar menejmenti.
- Xavfsiz mahsulotlarni rejalatirish va foydalanish.
- Validatlash, verifikatlash va tizimni yaxshilash.


Xavf-xatarlarni boshqarish nazariyasi barcha tomonlarning qabul qilingan darajagacha aniqlangan xavflarni kamaytirish yoki bartaraf etishga yo'naltirilgan boshqaruv ta'sirlarini ko'rsatish xususiyatiga ega o'zaro ma'lumot almashinuvini majburiyligi ta'kidlaydi. Eng muhim jihat oziq-ovqat zanjirining ixtiyoriy bosqichida yakuniy iste'molchi sog'lig'i uchun xavflarni hosil bo'lish imkonini

ma'lumot almashinuvining aynan bir xilligida faqat har bir qatnashuvchilaridan xavfsizlikni boshqarishga kelishish zarurligini ko'rsatib o'tilganligi hisoblanadi. ISO 22000 standartlari talablarida ma'lumotlar almashinuviga taaluqli 5.6 va 7.10.4 bandlarida aniqlangan.

Bu bilan bog'liq ixtiyoriy inson – yakuniy iste'molchilar talablari nuqtasida oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligiga erishish uchun asosiy vositalardan biri ishlab chiqarilayotgan va qo'llanilayotgan mahsulotga taaluqli hayotiy tsiklining barcha bosqichlarida xavflarni aniqlash bilan bog'liq masalalar bo'yicha barcha oziq-ovqat zanjirida samarali ma'lumotlar almashinuvi bo'lib hisoblanadi.

#### **5.4. Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligining menejment tizimlarining OOMXMT doimiy yaxshilash kontseptsiyasi.**

OOMXMT doimiy yaxshilash kontseptsiyasi ISO 22000 xalqaro standarti talablariga muvofiq SHuxart-Deming tsiklidan foydalanish orqali yaratilgan 5.3-rasm). TSiklning «Plan» va «Do» bosqichlari 4-7 bo'limlar talarblarini bajarish orqali hamda «Check» va «Act» bosqichlari esa 7 va 8 bo'limlar talablarini bajarish orqali tsikldan foydalanish asoslangan.



ISO 22000:2015 standart bundan tashqari nomuvofiqliklarni boshqarish va tahlil qilish protseduralariga talablardan ham tarkib topgan.

Shuxart-Deming tsikli asosida standart talablarining umumiyligini tuzilmasini qurish mavjud OOMXMT doimiy yaxshilanishini ta'minlashga yordam beradi.

Quyida NASSR tamoyillariga asoslangan mahsulotlar xavfsizligi va sifatini ta'milash tizmini batafsil ko'rib chiqamiz.



HACCP kontseptsiyasi o'zida oziq-ovqat xom ashyolarini tayyorlashdan to yakuniy iste'mol mahsulotigacha barcha oziq-ovqat zanjiri orqali o'tishida oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash uchun nazoratni o'tkazish, xavfli omillarni aniqlashga, ularni baholashga tizimli yondoshuvni namoyon etadi.

Shuni aytib o'tish lozimki, HACCP tizimi asosan sifatni ta'minlashga profilaktik yondoshuvda qurilgan va shuning uchun nafaqat ishlab chiqarish

jarayonilari davomida nazorat vositasi bo'lib hisoblanib, balki, yangi mahsulotlarni ishlab chiqishda sifatni loyihalashtirish uchun qo'llaniladi.

HACCP tizimini qo'llashdan asosiy maqsad barcha bosqichlarda (tayyorlash, qayta ishlash, ishlab chiqarish, qadoqlash, saqlash, tashish, tarqatish, yuklash-tushirish ishlari, sotishga taklif etish va iste'molchilarga yetkazib berish) jarayonlarini uzluksiz tekshirish, tahlil qilish va monitoringini o'tkazish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini xavfsizligi va gigienasi ta'minlash bo'lib hisoblanadi.

To'g'ri qo'llanish sharoitlarida HACCP tizimi o'zida oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini samarali boshqarish ishonchini beruvchi sifatida tavsiyalarni namoyon etadi. Tizim korxonalarga xavfsiz mahsulot yetkazish va keraksiz vaziyatlar yuzaga kelishini oldini olishni rejalashtirishni imkoniyatini beradi.

Iste'molchilarga ularni talabari va hohishlarini qondiridagan tavsiflarga ega mahsulotlar zarur. Ehtiyojlarni, raqobatchilik va texnikaviy rivojlanishlar o'zgarishida korxona ishlab chiqarayotgan mahsulotlari va jarayonlarini doimiy takomillashtirishi lozim.

Zamonaviy sharoitlarda oziq-ovqat korxonalari faqatgina sifati va xavfsizligi bo'yicha o'rnatigan talablarga muvofiq mahsulotni ishlab chiqarishning o'zi yetarli emas. Ular o'zlarini aniqlangan sifat darajasida mahsulot ishlab chiqarishga qodir ekanligiga iste'molchilar ishonchini ta'minlashi va unga muvofiq dalillarni taqdim etishi lozim.

Ichki bozorda ishlab chiqaruvchilar boshqa davlatlarning chakana savdo tarmog'ida ishtirok etishi mumkin. Davlatlararo mahsulotlarni aylanishini kengaytirish maqsadida qatnashuvchi-davlatlar mahsulotga umumiyl talablarni kelishuvuga ko'ra ishlab chiqishadi va o'rnatishadi.

Hozirgi kunda Yevropa Ittifoqida oziq-ovqatlarning xavfsizligiga qo'llanildigan quyidagi direktivalar amal qiladi:

- 29. 04. 2004 yildagi oziq-ovqatlar gigienasi bo'yicha YeS 852/2004 (14. 06. 1993 yildagi YeS 93/43 Direktiva bilan almashtirilgan).
- 29.04.2004 yildagi jonivorlardan olinadigan oziq-ovqat mahsulotlarini

ishlab chiqarish sohasida davlat nazoratini tashkillashtirish bo'ycha talablardan tarkib topgan YeS 854/2004 Direktiva.

- Codex Alimentarius.

Direktiva talablari umumiy tavsifda va ishlab chiqarish texnologiyalaridan kelib chiqib, har bir korxona aniqlashtirmog'i lozim. SHu tariqa oziq-ovqat mahsulotlari sifat va xavfsizligini kerakli darajada ta'minlash va saqlash chun HACCP tizimini korxonalarga ishlab chiqish va joriy etish tavsiya etiladi.

Evropa Ittifoqi mamlakatlari uchun 2005 yil 1 iyuldan kirish komponentalari (xom ashyo)dan boshlanib, yakuniy mahsulotni iste'molchiga yetkazishgacha texnologik zanjirning aniq va ravshanligi majburiydir.

Evropaning ko'plab mamlakatlarida va shuningdek, O'zbekistonda ham oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda sifati va xavfsizligi talablarini o'rnatuvchi milliy standartlar va boshqa me'yoriy hamda qonuniy hujjatlar mavjud.

Oziq-ovqat korxonalarida mahsulot xavfsizligi va sifatini boshqarish tizimiga yagona xalqaro talablarining mavjudligi ISO 22000 seriyali "Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizlik menedjmenti tizimidir. Yetkazib berish zanjirining barchasiga talablar"ni ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi va u 2005 yilning sentyabridan amalga kiritildi.

ISO 22000 HACCP va ISO 9001:2015 standartini birlashtiruvchi oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini boshqarish tizimini bayon etib, bir vaqtning o'zida GMP (yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti) dastlabki shartlar dasturini birlashtiradi va tushunchalariga izoh beradi. Ushbu standartda asosiy e'tibor oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqishda yuzaga kelish extimoli bo'lgan xavf-xatarlarni samarali boshqarish va tizim jarayonlarini modernizatsiyalash yo'li bilan xaridorlarni qanoatlantirishga qaratilgan. Ayni paytda hujjatlarning tuzilmasi bu tizimni sifat menedjmenti va atrof muhitni himoyalash tizimlarga qulay birlashtirish imkonini beradi. Oxirgi tadqiqotlari shuni ko'rstadiki, ISO 22000 seriyali standarti juda ommabop bo'lib, oxirgi 2 yilda bu standart bo'yicha sertifikatlashtirilgan korxonalar 3 martaga ko'paygan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda sifat menedjmenti tizimiga talablarni

o'rnatuvchi O'z DSt ISO 22000:2010 "Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi menedjementi tizimi. Oziq-ovqat mahsulotlini yaratish zanjirida qatnashuvchi tashkilotlarga talablar" standarti qabul qilingan va amalga joriy etilgan.

Hozirgi vaqtida HACCP tizimi oziq-ovqat mahsulotlarini uning hayotiy tsiklining barcha bosqichlarida eng yaxshi sifat va xavfsizligini ta'minlovchi xalqaro miqyosda umum tan olingan tizimdir. U AQSHda ishlab chiqilgan va o'zining oziq-ovqat korxonalarida xavf-xatarlarni boshqarish modelini ifoda etgan, hozirgi kunda jahon va Yevropaning ko'plab mamlakatalarida tarqalgan.

O'zbekiston Respublikasida "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash sohasida milliy qonunchilikni rivojlantirishga yana bir turtki bo'ldi. Oziq-ovqat sohasida aktlarni ishlab chiqish va qabul qilinishi mavjud texnik reglamentlarning maqomini va O'zbekiston umumevropa integratsiyalashuvi jarayonida ishtirok etishi, qonunchilik me'yorlarini uyg'unlashtirish va yaqinlashtirishga muhim xizmat qildi.

Evropaning ko'plam davlatlarida HACCP tizimi oziq-ovqat gigienasi bo'yicha chor-tadbirlar umumiyligi tizimning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Buyuk Britaniyada 1990 yil oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida Akt va 1995 yil №1763 oziq-ovqatlar xavfsizligi reglamenti qabul qilingan. Bu hujjatlar ishlab chiqarish zanjirining barcha bosqichlariga talablarni ko'rsatuvchi qonunchilikni o'zida namoyon etadi.

Germaniyada 1997 yil 5 avgustdan 1974 yil 15 avgustdagisi Oziq-ovqat mahsulotlari to'g'risidagi qonun asosida oziq-ovqat mahsulotlari gigienasi to'g'risidagi Federal hukumatining Qarori qabul qilingan va amal qilinadi. Bu qarorda ko'satiladiki, kim, qanday oziq-ovqat ishlab chiqsa, oziq-ovqatni qayta ishlasa yoki yetkazib berish bilan shug'ullansa, tekshirish o'tkazish yo'li bilan xavfli omillarni o'rnatish, bu jarayonlarning har biri uchun kritik nuqtalarni aniqlash va kafolatlash lozim ya'ni qabul qilingan xavfsizlik chora-tadbirlari davriy tekshirishdan o'tkaziladi. Ularni identifikatsiyalash uchun HACCP tamoyillari xizmat qiladi.

Italiyada 1997 yil 26 mayda №155 Qonuniy Dekreti qabul qilingan bo'lib, bu

Dekretning 3 moddasida HACCP tamoyillari va umumiylar va maxsus chora-tadbirlari o'nta ilovalar kiritilgan. Dekretning kuchga kirishi oziq-ovqat tarmog'i muassasalari uchun HACCP tamoyillari majburiy bo'lishiga zamin yaratdi.

Belgiyada HACCP tamoyillari 1997 yil 7 fevralda oziq-ovqat mahsulotlari umumiylar gigienasi to'g'risidagi Qirollik Dekretiga binoan, shu yilning 25 oktyabridan majburiy bo'lib hisoblanadi.

Ispaniyadagi milliy qonunchiligidagi HACCP tamoyillari 1995 yil 28 dekabrdagi №2207/1995 va 2000 yil 29 dekabrdagi №3484/2000 sonli Qirollik Dekretlarida kiritildi.

Portugaliyada o'z-o'zini nazorat to'g'risidagi 1998 yil 18 martdagagi №67/98 sonli Qonuniy Dekretning 3 moddasi HACCP tamoyillari mazmunidan tarkib topgan.

Frantsiyada Iste'molchilar Kodeksi Qonunosti Qismi I kitob II bobi me'yorlarini amalga oshirish maqsadida 90-yillarning o'rtalarida HACCP tizimini amalga oshiruvchi qator vazirliklarning aktlari chiqarildi. Bu barcha aktlar oziq-ovqat mahsulotlarining alohida toifalariga gigienik talablar ko'rsatilgan vertikal qonunchilikni namoyon etadi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, HACCP tizimini huquqiy boshqarish HACCP tamoyillarini nafaqat oziq-ovqat mahsulotlarining umumiylar gigienasini boshqaruvchi aktlarga kiritish yo'li bilan emas, balki, HACCP tamoyillaridan foydalanishga bag'ishlangan alohida maxsus aktlarni kiritish yo'li bilan ham amalgalashadi. Yevropada masalan, Niderlandiyada 1998 yilda "amaldagi HACCP tizimini kritik baholash" nomi bilan milliy hujjatning ikkinchi nashri qabul qilingan.

Rossiyada 2001 yil 1 iyuldan GOST R 51705.1-2001 «Sistemy kachestva. Upravlenie kachestvom riščevyx produktov na osnove printsipov HACCP. Obšcie trebovaniya» standarti amal qilingan.

Dastlab tizim XX asrning 70-yillarida ishlab chiqilgan va kosmik sanoatda (uning yordamida astronavtlar uchun ovqatlanish mahsulotlari sifati va xavfsizligini nazorat qilingan) qo'llanilgan. 80-yillarning o'rtalarida amerika Fanlar akademiyasi uni barcha iste'molchilarga xizmat qilishini taklif etgan. Oziq-ovqat sonaoti

korxonalarining HACCP talablarini majburiy bajarishi Yevropa ittifoqining ko'plab davlatlarida yuridik jihatdan o'rnatilgan.

HACCP asosida sifat tizimiga joylashtirilgan barcha tamoyillar oziq-ovqat mahsulotlariga birinchi darajali talablar, xavfsizligiga muhim ta'sir etuvchi xavfli omillarni baholash va boshqarish, tizimli identifikatsiyalashtirish ko'zda tutilgan.

ISO/IEC-51 xalqaro qo'llanmasiga muvofiq asosiy xavflar turlarini ko'rib chiqamiz. Hozirgi kunda kuyidagi xavflar klassifikatsiyasi mavjud:

- Jarohat olish xavfi.
- Elektr tokidan shkastlanish xavfi.
- Yong'in, portlash xavfi.
- Buyum ishlashida yuqori ko'rsatkichdagi harorat ta'siridagi xavf.
- Kimyoviy xavf.
- Biologik va mikrobiologik xavflar.
- Nurlanish xavfi.

Shu tarzda xavflarni bartaraf etish maqsadida mahsulotga talablarni kiritish lozim.

HACCP tizimida xavfli omil – oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligiga sabab bo'lувчи ixtiyoriy biologik, kimyoviy yoki fizik xavf-xatarlarni kiritish mumkin.

HACCP tizimi xavf-xatarlarini nolgacha kamaytirmaydi uning maqsadi oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligiga xavflarni, xavfli omillarni minimallashtirish bo'lib hisoblanadi. Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligiga xavf tug'diruvchi xavfli omillarni uchta guruhga bo'lish mumkin: biologik, kimyoviy va fizikaviy.

Biologik xavfli omillarga zararli bakteriyalar, viruslar va parazitlar (masalan, salmonella, tilla rang stafilokokk, ichak tayoqchasi) taalluqli. Kimyoviy xavfli omillarga – bevosita yoki ma'lum bir vaqtdan keyin zarar yetkazuvchi, mahsulotga sun'iy yo'l bilan qayta ishlashda yoki qayta ishlash jarayoni davomida (masalan, antibiotiklar, pestitsidlar, allergenlar) chetdan kiradigan moddalar bo'lishi mumkin. Fizikaviy xavfli omillarga oziq-ovqat mahsulotlaridagi turli toifadagi predmetlar ya'ni inson organizmiga tushganda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan (masalan, shisha, metall, daraxt) predmetlar taalluqlidir.

5.1 - jadvalda bakteriologik xavfli omillarning asosiy turlariga misollar keltirilgan

### Bakteriologik xavfli omillarning asosiy turlari

#### 5.1 - jadval

Mikroorganizmlar	Nima uchun xavfli hisoblanadi?
Listeria monocytogenes (nosporali shaklda)	Grippga o'xshash kuchsiz simptomlar bilan infektsiyani keltirib chiqaradi. Listerioz jiddiy shakllari kuchsizlangan immun tizimli odamlarda rivojlanishi va septitsemiya, meningit, entsefalitni va o'lik tug'ilishni keltirib chiqarishi mumkin.
Salmonella (nosporali shaklda)	Quyidagi simptomlar bilan infektsiyani keltirib chiqaradi: ko'ngil aynishi, qorin orig'i, diareya, issiq chiqishi va bosh og'rigi. Kuchsizlangan immun tizimli odamlarda o'limga olib kelishi mumkin.

Kimyoviy xavf omillarini paydo bo'lishining asosiy manbalarini ko'rib chiqamiz:

1. Bexosdan oziq-ovqatga tushuvchi ximikatlar:

a) qishloq xo'jaligi ximikatlari: pestitsidlar, gerbitsidlar, hayvonlar uchun dorivor preparatlar, o'g'itlar va h.k.

b) korxona foydalaniladigan ximikatlar: dezinfektsiyalash uchun tozalash va yuvish vositalari, yog'lar, moylash materiallari, buyoqlar, pestitsidlar va h.k.

c) tashqi muhitdan zaharlanish: qo'rg'oshin, kadmiy, simob, mlyshbyak, RCB.

2. Tabiiy paydo bo'luvchi kimyoviy xavf-xatar omillari: o'simlik mahsulotlari, hayvonot yoki mikroblı metabolizmlar.

3. Bexosdan oziq-ovqatlarga qo'shiladigan ximikatlar: konservantlar, kislotalar, qayta ishlashni yengillashtirish xususiyatiga ega moddalar, oziq-ovqat qo'shimchalari va h.k.

5.2 – jadvalda tabiiy xavfli moddalardan tarkib topgan mahsulotlarga misollar keltirilgan:

## Kimyoviy xavfli moddalardan tarkib topgan asosiy mahsulotlar

### 5.2-jadval

Manba	Nima uchun xavfli hisoblanadi?
Bir nechta baliq turlari (masalan, tunets)	Bir necha baliq turlari gistamin toksik darajasini shakllanishiga keltirib chiqarishi mumkin
Yong'oqlar, dengiz mahsulotlari	Bir necha turi va navlari sezgir odamlarda allergik reaksiyalarni hosil qiladi
Makkajo'xori	Bir necha mog'or turlari makkajo'xorida o'sib, toksinlar (masalan, aflatoksin)ni ishlab chiqarishi mumkin

Fizikaviy xavfli omillar insonga shkast yetkazuvchi yoki kasallikka chalinishi keltirib chiqaruvchi oziq-ovqat mahsulotlariga tasodifan boshqa toifadagi predmetlar yoki fizikaviy predmetlar bo'lib hisoblanadi. Boshqa toifadagi materiallar bular shisha, metall yoki plastik sifatda bo'lib, texnologik jarayonlar davomida qurilmalar noto'g'ri ekspluatatsiya qilinganligi uchun yoki texnologik jarayonlarga rioya qilinmaganligi uchun parranda va go'sht mahsulotlariga ko'proq ma'lum bo'lган fizikaviy xavfli omillar hisoblanadi.

Shunday qilib, Sanitar qoidalar va me'yordorda oziq-ovqat mahsulotlari uchun birinchi galda hisobga olinadigan omillar ruyxati va o'zgarishlarsiz xavfli omillar keltirilgan. Har bir mavjud omillar xavf-xatarlar ruxsat etilgan darajadan oshirmsaligi bo'yicha omillar ro'yxati tuziladi va ularning ketma-ketligi va omillarning paydo bo'lish ehtimolligini hisobga olib tahlili o'tkaziladi. Agar maqbul xavf-xatarlar mavjud bo'lmasligi to'g'risida ma'lumotlar bo'lmasa, HACCP guruhi uni ekspert yo'li bilan o'rnatadi. 5.3-rasmida diagramma bo'yicha xavf-xatarlar tahlili metodi keltirilgan. Mahsulotda qatnashadigan atrof-muhit, xodimlar hamda qurilmadan chiquvchi va boshqa xavfli omillarni hisobga olinadi.

1. Ekspert usuli barcha mavjud ma'lumot manbalari va HACCP guruhi a'zolarining amaliy tajribasi hisobga olish bilan to'rta: amalda nolga teng, ahamiyatsiz, ahamiyatli yoki yuqori baholash variantlaridan kelib chiqib xavfli omillardan foydalinish ehtimolligi baholanadi.

2. Ekspert yo'li bilan shuningdek, to'rta: yengil, o'rtacha qiyinlikda, qiyin,

kritik baholash variantlari imkoniyatidan kelib chiqib xavfli omillardan foydalanish qiyinligi natijasi baholanadi.

3. Xavf-xatarli omillar qo'llanilish ehtimolligi qiyinchiliginin inobatga olib sifat diagrammasi koordinatasida ruxsat etilgan xavf-xatarlar chegarasi 6-rasmda ko'rsatilganidek quriladi.

Shuningdek, 3 ustunda xavfli omillarni identifikatsiyalash uchun nazorat qilinayotgan shu operatsiyaga xavf-xatarlar alomati yoki nazorat qilinadigan parametrlari ko'rsatiladi.

### 5.3 - jadval

Har bir operatsiya bo'yicha oldini oluvchi amallar ro'yxati

Operatsiya nomi	Hisobga olinadigan xavfli omil	Nazorat alomatlari	Oldini oluvchi amallar
1	2	3	4

### 5.5. Kritik nazorat nuqtalari uchun kritik chegaralar tushunchasi.

Kritik nazorat nuqta xavfli omillarni va barcha operatsiyalarni shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlari blok-sxemalarini hisobga olib aniqlanadi. Kritik nazorat nuqtalari zaruriy sharti ko'rileyotgan operatsiyaning xavf-xatarlar alomatlarni nazorat qilish (xavfli omillarni identifikatsiyalash va (yoki) oldin oluvchi (boshqaruvchi) ta'sirlar, xavf-xatarlarni bartaraf etish yoki ruxsat etilgan darajagacha kamaytirish) bo'lib hisoblanadi.

Kritik nazorat nuqtani "Qaror qabul qilish daraxti" usuli bilan aniqlash algoritmi 5.4 – rasmda keltirilgan.

Kritik nazorat nuqtalar miqdorini ziyon yetkazmasdan kamaytirish maqsadida shartlarni bajarish uchun nuqtalarni inobatga olmasdan ularning xavfsizlikni ta'minlash uchun bajariladigan shartlar quyida keltirilgan.

Oldini oluvchi ta'sirlar sanitar qoidalar va me'yorlarda, qurilmalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish tizimida, sifat tizimi protseduralarida va korxonaning boshqa menedjment tizimlarida reglamentlangan va rejali tartibda

tizimli amalga oshiriladi.

Nazorat nuqtalariga taalluqli bo'lmagan oldini oluvchi ta'sirlarni bajarilishi ichki tekshiruvni o'tkazishda davriy tekshiriladi va HACCP guruhi baholaydi. Xavfli omillarning tahlil natijalari va kriik nazorat nuqtalarini anqlash asoslangan va hujjatlashtirilgan bo'lisi shart.

-idenifikasiyalash mezonlari – xavfli omillar uchun;

-ruxsat etilgan (ruxsat etilmagan) xavf-xatarlar mezonlari – xaf-xatarlar alomatlarini nazorat qilish uchun;

-ruxsat etilgan chegaralar – qo'llaniladigan oldini oluvchi ta'sirlar uchun. "Kritik chegarlar" deb nomlanuvchi kritik va ruxsat etilgan chegaralar barcha xatoliklarni shuningdek, o'lchashlarni ham hisobga olib berilishi shart. Miqdoriy alomatlarni vizual kuzatuv bilan baholashda etalon-namunalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Kritik chegaralar 5.6 – jadvalda keltirilgan shakl bo'yicha HACCP ishchi varag'ida kiritladi.

#### **HACCP ishchi varag'i shakli**

Mahsulot nomi\_\_\_\_\_

Texnologik jarayon nomi\_\_\_\_\_

5.6- jadval

Operatsiya lar nomi	Xavfli omillar	Kritik nazorat nuqta raqami	Nazorat qilinadigan parametr va uning chegaraviy qiymati	Monitoring protsedurasi	Tekshiriluvchi amallar	Ro'yxat-hisob hujjati
1	2	3	4	5	6	7

HACCP tizimi quyidagi maqsadlarga erishishga yo'naltirilganligini ta'kidlash zarur:

- HACCP tizimi iste'molchilar sog'lig'i va hayoti uchun xavflarni paydo bo'lish xavf-xatari darajasini ruxsat etilgangacha kamaytirish yoki to'liq bartaraf etish hisobiga oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligiga ishonchni oshirish.

- HACCP tamoyillari asosida tayyorlash, qayta ishlash, ishlab chiqarish, tarqatish, yuklash, tashish, saqlash va foydalanishda xavf-xatarlarni boshqarish bo'yicha ishlarni tartiblashtirish va muvofiqlashtirish hisobiga sifat barqarorligini oshirish hamda oziq-ovqat mahsulotlarining yaroqliligi muddatini uzatirish.


- Ishlab chiqarish mehnati, texnologik jarayonlarni samaradorligi oshirish va yaroqsiz mahsulotlarni kamaytirish (takroriy qayta ishlash va chiqindilarni kamaytirish), korxona daromadini oshirish.

- Kritik chegaralarni aniqlash va xavfli omillarni baholash hamda aniqlashda HACCP tizimi va uning monitoringi, asoslangan nazorat nuqtalari nomenklaturasini o'rnatish hisobiga ishlab chiqarish jarayonida majburiy standartlar talablariga rioya etish uchun davlat tekshiruvi va nazorati o'tkazishga ko'maklashish.

Mahsulot ishlab chiqarishga mo'ljallangan HACCP tizimini sertifikatlashtiruvchi tashkilotlar uchun muvofiqlik belgisi tovar yuk-xatida, (yorliqlarida, etiketkasida) kadoqlarida qo'yilishi mumkin.

Mahsulotni tashish, saqlash va (yoki) foydalanishga mo'ljallangan HACCP tizimini sertifikatlashtiruvchi tashkilotlar uchun muvofiqlik belgisi rasmiy blanklarda va sertifikatni saqlovchisining reklama manbalarida qo'yilishi mumkin.


Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) 2005 yil avgustda oziq-ovqat mahsulotlariga murojaat etuvchi, qurilmalar ta'minotchilari, idishlar, qadoqlash, oziq-ovqat qo'shimchalari, omuxta-em, o'g'itlar va h.k. ishlab chiqarishga jalg etilgan ixtiyoriy korxonalar uchun OOMXMT ISO 22000:2005 xalqaro standartini qabul qildi. Shuningdek, standart chakana savdoda, restoran biznesida, yuvish, dezinfiktsiyalash, zarar kunandalar bilan kurashuv bo'yicha chora-tadbirlarda, saqlash, tashish va mahsulotni tarqatishdagi tarli xil xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha biznesda foydalanish uchun ham qo'llaniladi.



Agar nuqta chegarada yoki yuqorida bo'lsa, omil hisobga olinadi, quyida bo'lganda esa hisobga olinmaydi.

HACCP guruhi xavf-xatarlarni bartaraf etish yoki ularni ruxsat etilgan darajagacha kamaytirishga oldini olish amallarni aniqlash va hujjatlashtirishi lozim. Oldini oluvchi amallarga ishlab chiqarish texnologik jarayonlari parametlarini nazorat qilish; termik qayta ishlash; konservantlarni qo'llash; metalldetektorlardan foydalanish; zararli moddalar kontsentratsiyasini davriy nazorat qilish; qurilmalarni, vositalarni, qo'l va poyafzal va boshqalarni yuvish va dezinfiktsiyalash taalluqli.

## 5.6. HACCPni joriy etish bosqichlari.



5.5-rasm. Kritik nazorat nuqtalarini aniqlash uchun “Qaror qabul qilish daraxti daraxti” metodi.

<b>HACCP tamoyillari</b>	<b>HACCPni joriy etishi bosqichlari</b>	<b>ISO 22000:2005</b>		
	HACCP bo'yicha guruhni yig'ing	1-Bosqich	7.3.2	Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha guruh
	Mahsulotni tavsiflang	2-Bosqich	7.3.3	Mahsulot tavsifi
	Mo'ljallangan qo'llanilishini identifikatlashtirish	3-Bosqich	7.3.4	Mo'ljallangan qo'llanish
	Texnologik sxemani tavsiflang. Ishlab chiqarish maydonida texnologik sxemani tasdiqlab oling	4-Bosqich 5-Bosqich	7.3.5	Texnologik sxemalar, jarayon bosqichlari va boshqarish bo'yicha choralar
<b>1-Tamoyil</b> Xavflar tahlilini bajaring	Barcha mavjud xavflar ro'yxatini tuzib chiqing. Xavflarni tahlil qiling. Boshqarish bo'yicha choralar imkonini ko'rib chiqing	6-Bosqich	7.4	Xavflar tahlili
<b>2-Tamoyil</b> Kritik nazorat nuqtalarini aniqlang	Kritik nazorat nuqtalarini aniqlang	7-Bosqich	7.6.2	Kritik nazorat nuqtalarini identifikasiyalash
<b>3-Tamoyil</b> Kritik chegarani (kritik chegaralar) o'rnating	Har bir kritik nazorat nuqtalari uchun kritik chegaralarni o'rnating	8-Bosqich	7.6.3	Kritik nazorat nuqtalari uchun kritik chegaralarni o'rnating
<b>4-Tamoyil</b> Kritik nazorat nuqtalari uchun monitoring tizimini ishlab chiqing	Har bir kritik nazorat nuqtalari uchun monitoring tizimini ishlab chiqing	9-Bosqich	7.6.4	Kritik nazorat nuqtalarida monitoring tizimi
<b>5-Tamoyil</b> Monitoring natijalari muayyan kritik nazorat nuqtada boshqaruv yo'qligini ko'rsatgan xolatlarda, natijalarni inobatga olib qabul qilinadigan to'g'rlovchi amallarni aniqlang	To'g'rlovchi amallarni aniqlang	10-Bosqich	7.6.5	Monitoring natijalari kritik chegaralardan yuqori ko'rsatgan xolatlarda qabul qilinadigan amallar
<b>6-Tamoyil</b> HACCP tizimi samarali ishlashini tasdiqlash uchun verifikatsiya protseduralarini ishlab	Verifikatsiyalash protsedurasini ishlab chiqing	11-Bosqich	7.8	Verifikatsiyalashni rejalashtirish

chiqing				
<b>7-Tamoyil</b> Ushbu tamoyillar va ularni qo'llashga muvofiq barcha protsedura va yozuvlar munosabatini hujjatlashtirishni ishlab chiqing	Hujjatlar va yozuvlarni yuritilishini o'rnating	12-Bosqich	4.2 7.7	Hujjatlarga talablar Dastlabki ma'lumotlarni va hujjatlarni dolzarblikka qayta ko'rib chiqish

5.7-jadvalda HACCP tamoyillari, HACCPni joriy etish bosqichlari va ISO 22000:2005 bandlari bilan o'zaro muvofiqlik havolalari keltirilgan.

Oziq-ovqat zanjirida bevosita yoki bilvosita jalb etilgan ixtiyoriy tashkilotlarda OOXMTni yaratishda foydalanish mumkin. Bunda ISO 22000 va HACCP sifatida ishlab chiqarish, qayta ishlash, tarqatish, saqlash va oziq-ovqat mahsulotlari va ularning ingredientlari bilan muomala qilish, birlamchi ishlab chiqarishdan to oxirgi iste'molgacha jalb qilingan faoliyatlar va ketma-ketlikdagi bosichlardagi oziq-ovqat zanjiri qaraladi.

### **5.7. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati va xavfsizligini ta'minlashda xalqaro GLOBAL G.A.P standartini joriy etishning ahamiyati.**



XX - asr oxirlariga kelib yevropada qishloq xo'jaligi maxsulotlari sifati va xavfsizligini ta'minlashda dolzarb muammolar yuzaga kela boshladi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qiluvchi korxonalarda o'z biznesida oziq-ovqat xavfsizligiga bilan bog'liq tahdidlarni minimum darajaga tushirish uchun, savdo tarmoqlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha yangi standart ishlab chiqish zarurati paydo bo'ldi.

Respublika iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida, ayniqsa, yetakchi tarmoqlardan biri hisoblangan qishloq xo'jaligining o'rnini hisobga olgan holda tarmoqqa joriy qilingan menejment tizimlarini takomillashtirish va shuning asosida

mahsulotlar sifati, ularning ham iste'mol, ham atrof muhitga zarar yetkazmasligi jihatidan xafvsizligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu yo'nalishda eng sezilarli natijalar «Global GAP» – standartlashtirish va sertifikatlash tashkiloti tomonidan erishilgan. U tayyor mahsulotlar havfsizligini yaratuvchi oziq-ovqat tovarlari va xom ashyolari asosiy ishlab chiqaruvchilarining yagona yondashuvini ta'minlaydi. «Global GAP» tarkibiga jahonning 100 dan ortiq mamlakatlari, hususan asosiy iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi barcha Yevropa mamlakatlari, AQSh, Yaponiya, Xitoy, Tailand, Hindiston, Afrika qit'asi mamlakatlari va boshqalar kiradi. «Global GAP» tizimi 21 asr boshidan standartlashtirish va sertifikatlash bo'yicha faoliyat olib bormoqda. Ushbu tashkilot maqsadi oziq-ovqat mahsulotlari va xom-ashyosi havfsizligini ta'minlashning yagona jahon amaliyotini yaratishdir.

### **Global GAP (Eurep GAP) to'g'risida umumiy ma'lumotlar.**

XX – asr oxirlariga kelib yevropada qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati va xavfsizligini ta'minlashda dolzarb muammolar yuzaga kela boshladи.


Qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qiluvchi korxonalarda o'z biznesida oziq-ovqat xavfsizligiga bilan bog'liq tahdidlarni minimum darajaga tushirish uchun, savdo tarmoqlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha yangi standart ishlab chiqish zarurati paydo bo'ldi. Shu tariqa yuzaga kelgan standart Eurep GAP: (Euro-RetailerProduceWorkingGroup) – oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi masalalari bo'yicha yevropa ishchi guruhi va GAP (Good Agricultural Practice) -Qishloq xo'jaligini yaxshilash amaliyoti nomini oldi.

Hozirgi kunda dunyoning 124 ta mamlakatidagi 170000 dan ortiq ishlab chiqaruvchilar mazkur sertifikat bo'yicha sertifikatlangan.



## 5.6-rasm. GLOBAL G.A.P. sertifikatiga ega bo'lgan korxonalarining dunyo bo'yicha o'sib borish dinamikasi.

Biz mazkur risolada GLOBAL G.A.P. standartlarining mohiyati, ahamiyati va joriy etish tartibi haqida qisqacha so'z yuritamiz.



5.7-rasm. Dunyo bo'yicha sertifikatlashtirilgan ekin maydoni, ga



5.8-rasm. Dunyo bo'yicha sertifikatlashtirilgan ekin maydoni, ga

Global GAP – bu qishloq xo’jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun birinchi darajali standart bo’lib, qishloq xo’jalik ekinlarini ekish vaqtidan to mahsulotlarni yig’ib olishgacha bo’lgan, agar chorvachilikda bo’lsa ishlab chiqarishga kirishish vaqtidan oraliq mahsulot holatiga kelguncha (boqish va so’yish) bo’lgan davrda barcha ishlab chiqarish jarayonlarini qamrab olgan me’yoriy hujjatdir.

Global GAP standarti Eurep GAP (butun jaxon bo’yicha qishloq xo’jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlariga standartlar, sertifikatlashtirishga talablarni o’rnatuvchi xususiy idora) tomonidan chop etiladi.

Ushbu standartning asosiy maqsadi qishloq xo’jalik mahsulotlarini yetishtirish jarayonining barcha jabhalarini kuzatish orqali ularni yetishtirish davrida sifatiga salbiy ta’sir etuvchi omillar va xavf-xatarlar darajasini minimallashtirishdan iboratdir.

Global GAP standartining asosiy tamoyillari.

XX asr o’rtalarida ishlab chiqilgan NASSR (Hazard Analysis and Critical Control Point — kiritik nazorat nuqtalari va xavf xatarlar tahlili) tizimidan foydalangan holda Global GAP standarti oziq-ovqat mahsuloti sifati va xavfsizilgini oshirish maqsadida qo’llanma sifatida yaratildi.

Uning asosiga quyidagi tamoyillar kiritilgan:

- *Xavf-xatarlar (xavfli omillar) tahlilini o’tkazish.* Jarayon tarkibidagi operatsiyalar ro’yxatini tayyorlash, qo’llaniladigan nazorat usullarini bayon etish, ahamiyatga ega bo’lgan xavf-xatarlarni yuzaga kelishi mumkin bo’lgan bosqichlarni aniqlash lozim. Xom-ashyoni olishdan boshlab to yakuniy mahsulotgacha bo’lgan barcha bosqich jarayonlarini to’liq aks ettiruvchi ishlab chiqarish jarayonlarining blok-sxemasi tuziladi. Sxema tuzilganidan so’ng, har bir bosqichda yuzaga kelishi mumkin bo’lgan barcha mavjud xavfli omillar identifikasiyalanadi ya’ni bunda axamiyatga ega xavflarni aniqlash uchun xavf-xatarlar darjasini aniqlanadi va ularni nazorat qilish uchun zaruriy chora-tadbirlar bayon etiladi. Bu xavf-xatarlarni tahlil qilish HACCP tizimida asosiy bosqichi bo’lib hisoblanadi.

- *Kritik nazorat nuqtalarini (KNN) o’rnatish.* Xavfli omillar ta’siri

ehtimolligini minimumga keltirish yoki qaytarilmasligi uchun nazorat qilinishi zarur bo'lgan jarayon bosqichlari va operatsiyaning kritik nuqtasi aniqlanadi.

– *Parametrlarning yuqori qiymatlari (kritik chegaralari)ni o'rnatish.* Har bir aniqlangan KNN bo'yicha nazorat chora-tadbirlari qo'llaniladi .

– *KNN nazorat qilish uchun monitoring tizimini ishlab chiqish.* KNN nazorat qilish protsedurasini, kuzatish va o'lchashlarning davriylik tizimini, ya'ni o'rnatilgan chegaralar doirasida KNN holatini tasdiqlash maqsadida aniqlash lozim. Rejalashtirilgan sinovlar yoki o'lchashlar yordamida kritik nazorat nuqtalarini nazorat qilish imkonini beruvchi monitoring tizimi yaratiladi.

– *Nazoratdagi KNN u yoki bu chegaradan chiqishlari to'g'risidagi monitoring natijalariga muvofiq qo'llaniladigan to'g'rilovchi amallarni aniqlash.* Ushbu tamoyilga muvofiq to'g'rilovchi amallarni qo'llash tartibini ishlab chiqish va uni qo'llash uchun javobgarlarni qayd etish zarur.

– *HACCP tizimi haqqoniy ishlashini tasdiqlovchi verifikatlash (tekshirish) protsedurasini ishlab chiqish.* To'g'rilovchi amallar va texnologik operatsiyalarni hujjatlashtirish va yuritish uchun javobgarlarni tayinlash lozim. Bundan tashqari HACCP tizimining samaradorligini tasdiqlash imkoniyatini beruvchi tekshirish protsedurasini ishlab chiqish kerak.

– *Ushbu tamoyillarga taalluqli barcha protseduralar va yozuvlarni tasdiqlash va ularni qo'llash.* Parametrlarning yuqori qiymatidan ixtiyoriy og'ishlar bo'yicha haqqoniy to'g'rilovchi amallarni qo'llash to'g'risidagi va HACCP tizimining ishlashi nazorat ostidaligi to'g'risidagi yozuvlarni yuritish. Bunday hujjatli rasmiylashtirish xavfsiz mahsulot ishlab chiqarishni dalolatlash bo'lib hisoblanadi.

### **Global GAP (EurepGAP)ni joriy qilishning afzalliklari.**

Global GAP sertifikatlashtirish tizimi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi xo'jaliklarni bir qator afzalliklar bilan ta'minlaydi:

**Tizimli yondoshish** – protsedura va jarayonlarni aniq identifikatlash har qanday turdagи biznesda ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Xo'jalikni boshqarishning barcha nuqtai nazarlar yig'indisi va kompleks tushunchalarsiz xo'jalikni samarali boshqarib bo'lmaydi.

**Buyurtmachi ishonchi** – Mahsulot burtmachisi (qayta ishslash korxonalari, ulgurchi va chakana savdo korxonalari) oladigan mahsulot (xom ashyo)ning xavfsizligi va sifatliligiga ishonchi. Bu esa uzoq muddatli xamkorlik yo'lidir.

**Iste'molchi ishonchi** – iste'molchining qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati va xavfsizligiga bo'lgan ishonchi, chakana savdo korxonalari bilan bir qatorda ushbu yo'nalishdagi bozor sektorining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Xavf-xatarni boshqarish** – mahsulotning zararlanish/ifloslanish imkoniyatlarini kamaytirgan holda, atrof muhitni, mahsulot yetishtirishdagi sanitariya gigienasini yaxshilashga yordam beradi.

**Rahbariyatning javobgarligi** – xavfsiz mahsulotni yetishtirish va yetkazib berishga qulay shart sharoitlar yaratishga imkon beradi.

**O'zaro aloqalar samaradorligi** – qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini boshqarish tizimi oziq-ovqat ishlab chiqarish tarmog'idagi korxonalar, nazorat qiluvchi va buyurtmachilarning o'zaro aloqalarini kengaytirishga imkon beradi.

**Ro'yxatga olish** – ro'yxatga olish tizimini kiritish mahsulot yetishtirish ustidan nazorat qilish samaradorligini oshirib, nazorat idorasi aloqasini yengillashtiradi.

**Qonunchilik tomonidan himoyalanishi** – ko'pchilik jahon davlatlarida GlobalGAP tizimi oziq ovqat tarmoqlarda yetishtirishni boshqarish va xavfsiz mahsulotni yetkazib berishning samarali quroli hisoblanadi.

**Sifat menejmentining barcha tizimlariga mosligi** – Global GAP tizimi sifat menejmenti tizimlari bilan mosligi: Masalan, BRC, IFS, ISO 9001:2008. Davlat standartlari bo'lib, milliy qonunchilikka zid emas.

**Evropa bozorlariga chiqish** – ko'plab yevropa savdo majmualari GlobalGAP tizimi bilan ishlab keladi. Sertifikatlanmagan mahsulotlarni bozorga chiqishini oldini olib, sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni sotilishga ko'maklashadi.

**Savdodagi foyda** – Global GAP tizimi bo'yicha olingan mahsulot sertifikati ichki va tashqi bozorda mustahkam o'rin egallashda raqobatlashayotgan kompaniyalarga ustunlik beradi.

## **Global GAP standartining tarkibiy tuzilmasi.**

Global GAP standartining tarkibiy tuzilmasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish uchun bazaviy modulъ (AF)

1. O'simlikshunoslik. Bazaviy modulъ (CB)

- Sabzavot-poliz va mevalar (FV)
- Aralash ekinlar (CC)
- Qahva (ko'katlar) (CO)
- Choy (TE)
- Gullar va manzarali o'simliklar (FO)

2. Chorvachilik. Bazaviy modulъ (LB)

- Qoramol, qo'y (CS)
- Sut beruvchi mol (DY)
- Cho'chqa (PG)
- Uy parrandalari (PY)

3. Baliqchilik. Bazaviy modulъ (AB)

- Lasoslarga mansub baliqlar (SN)

Yuqorida keltirilgan xalqaro standartlardan tashqari qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladigan «Standart» GAP – Good Agricultural Practices (maqbul qishloq xo'jalik amaliyoti) ham foydalaniladi.

Global GAP – bu qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun birinchi darajali standart bo'lib, qishloq xo'jalik ekinlarini ekish vaqtidan to mahsulotlarni yig'ib olishgacha bo'lган, agar chorvachilikda bo'lsa ishlab chiqarishga kirishish vaqtidan oraliq mahsulot holatiga kelguncha (boqish va so'yish) bo'lган davrda barcha ishlab chiqarish jarayonlarini qamrab olgan me'yoriy hujjatdir.

Ushbu hujjatda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiruvchi korxonalarining amaliyotiga tegishli umumiy tamoyillar bayon qilingan bo'lib, butun jahonda yetakchi savdo kompaniyalari uchun muvofiq bo'lган, global miqyosdagi o'simlikshunoslik, chorvachilik va baliqchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning

optimal usullarini joriy etishning asosiy elementlari belgilangan.

GAP bu yetishtirilayotgan mahsulot xavfsizligini oshirish va sifatini yaxshilashga yordam beruvchi tavsiyalar jamlamasidan iboratdir. Bu standartda ixtiyoriy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish tizimlariga ko'llash va moslashtirish mumkin bo'lgan rahbariy ko'rsatmalar berilgan. GAP qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonining dastlabki to'rtta komponenti ya'ni, tuproq, suv, xodim, ishlab chiqarish va qayta ishlash muhitiga e'tibor qaratadi. Bu standart ISO 9001 standarti bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada emas, ammo, muqobil tamoyillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari xavfsizligi va sifat tizimini yaratishga yordam beradi.

Maqbul qishloq xo'jaligi amaliyoti (GAP) turli xil manbalarda chop etilgan bo'lib, Birlashgan millatlar tashkiloti qoshidagi Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat bo'yicha tashkilot (Food and Agriculture Organization of the United Nations) chop etgan GAP, AQSh Qishloq xo'jaligi departamenti (United States Department of Agriculture) chop etgan GAP, Global GAP (evropa kompaniyalari guruhi - riteylerlar) chop etgan GAP mavjuddir. Bu manbalarning har birida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari foydalanishi lozim bo'lgan tamoyillar tarkibi bo'yicha bir-biridn farqli jihatlari bor.

Zamonaviy oziq-ovqat sanoatida sifat va xavfsizikni boshqarishning asosiy elementlari: ISO 9000 xalqaro standartiga muvofiq korxonaning sifat menejment tizimi (SMT); HACCP tamoyillariga muvofiq oziqlanish mahsulotlari xavfsizlik tizimi; ishlab chiqarishda sanitariya va gigiena (GMP) tizimi; ISO 14000 bo'yicha ekologik menejmenti tizimi bo'lib hisoblanadi. 2005 yilning 1 sentyabridan oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimiga talablarni o'rnatuvchi ISO 22000 seriyali standartlar amalga joriy etildi.

AQShda Yevropa ittifoqi mamlakatlarida gigiena va sanitariya sohasida ishlab chiqarish xatolarining xavf-xatarini minimumga olib borishga foydalaniladigan SMTning qismi GMP qoidalari bo'lib hisoblanadi.

GMP (Good Manufacturing Practice) – bu maqbul ishlab chiqarish amaliyoti YeS 93/43 Direktivida o'rnatilgan bo'lib, oziq-ovqat biznesida faoliyat olib

borayotgan va bu sohada ish olib borishni boshlaganlarga ruxsat olishi uchun kerakli shartlarni bajarishga zaruriy bo'lib hisoblanadi.

GMP – FDA (AQSh dori vositalari va oziq-ovqat mahsulotlarini nazorat qilish bo'yicha hukmat Agentligi) nazoratida turgan bir qancha oziq-ovqatlar va medikamentlarni ishlab chiqarish uchun me'yorlar, qoidalar va qo'llanmalar majmuasidir. GMP umumiy qoidalariga muvofiq turli xil mamlakatlar alohida mahsulot turlarini ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlashtirish sharoitlarida muvofiqlashtiruvchi, standartlar va hujjatlarni ishlab chiqishmoqda.


GMP qoidalarida mahsulotni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va foydalanish jarayonlarida sanitar-gigienik chora-tadbirlarni amalga oshirishga asosiy e'tibor qaratilgan.

GMP qoidalari shuningdek, ishlab chiqaruvchilardan o'rnatilgan talablarga muvofiq o'lchashlar usuli va vositalari asosiy va qo'shimcha qurilmalarni, texnologik jarayonlarning ishchi holatda ekanligini isbotlashni talab etadi. O'zbekistonda «Aholi sog'lig'i-salomatligi sanitar-epidemoliyasi to'g'risida»gi qonuniga muvofiq va sog'liqni saqlash vazirligi qoidalariga muvofik, sanitar-gigenik qoida va me'yorlariga asosan xalq iste'moli mahsulotlari va xomashyolarini ayri boshlash va savdo tashkilotlariga sanitar-epidemoliya talablari; sanitar-epidimeoliya (profilaktika) chora-tadbirlarini bajarish va sanitar qoidalariga rioya etish bo'yicha ishlab chiqarish nazorati tashkil etish va o'tkazish, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligiga mos bo'lgan gigenik talablar bo'lib hisoblanadi. «Texnik jihatdan tartibga solish to'g'rsida»ga qonunga muvofiq *mahsulotlar, ishlab chiqarish jarayonlari, ekspluatatsiyasi, saqlash, foydalanish va utilizatsiyalashtirish xavfsizligi* – bu o'simlik va jonivorlarning hayoti va sog'lig'i, davlat yoki mahalliy mulklari, fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga ziyon yetkazish sabablari bilan bog'liq ruxsat etilmagan xavf-xatarlar mavjud bo'lgandagi holatidir.

Ichki bozorda ishlab chiqaruvchilar boshqa davlatlarning chakana savdo tarmog'ida ishtirok etishi mumkin. Davlatlararo mahsulotlarni alanishini kengaytish maqsadida qatnashuchi-davlatlar mahsulotga umumiy talablarni kelishuvga ko'ra ishlab chiqishadi va o'rnatishadi. Hozirgi kunda Yevropa Ittifoqida oziq-

ovqatlarning xavfsizligiga qo'llanildigan quyidagi direktivlar amal qiladi:

**Global GAP standartining tarkibiy tuzilmasi 5.9–rasmida keltirilgan.**



## **GlobalGAP standartini joriy qilish ko'yidagi bosqichlaridan iborat:**

- Mahsulot yetishtiruvchi xo'jalikning xolati taxlili. GlobalGAP talablariga muvofiqlikka dastlabki audit o'tkazish.
- GlobalGAP standarti talablariga muvofik dastlabki auditni utkazish.
- Xo'jalik ishchilarini GlobalGAP talablari bilan tanishtirish uchun "TANISHTIRUV" ukuv seminarini utkazish. GlobalGAPni joriy kilish bo'yicha dasturlar ishlab chikish.
- Standart talablariga muvofiq zarur xujjalalar tizimini joriy qilish.
- Etishtirish jarayonida yuz berishi mumkin bulgan xavfni xamda ularni yuzaga kelishini oldini oluvchi (gigienik, ekologik, kimyoviy, biologik, fizikaviy va x.k ) usullarni aniqlash va baholash.
- Etishtirishning barcha jabxalaridagi zarur agrotexnik tadbirlar bosqichlarini ro'yxatga olish tizimlarini joriy qilish.
- Fermer xo'jalik xududida GlobalGAP talablariga muvofik sifat tizimini joriy kilish ishlarini tashkillashtirishda maslaxat xizmatlarini ko'rsatish.
- GlobalGAP talablariga muvofik mexnatni muxofaza kilish qoidalari, ekologik xavfsizlik va ishlab chiqarishda sanitariya me'yor qoidalari joriy qilishda maslaxatlar berish.
- Identifikatlashtirish va kuzatish tizimini ishlab chiqish, mahsulotga berilgan baho bo'yicha protseduralarni joriy qilish.
- GlobalGAP talablariga muvofiq ichki audit o'tkazish.
- GlobalGAP buyicha Sertifikatlashtirish idorasiga ariza berish, mustaqil sertifikatlashtirish idorasi tomonidan sertifikatlashtirish auditni o'tkazish davrida maslaxat ko'rsatish.

Barcha boskichlarda xodimlar ukitiladi.

Mahsulot sifati va xavfsizligini nazorat qilishning muqaddam qabul qilingan tizimi yetarli darajada samara bermaganligi sababli tayyor mahsulotga emas balki, mahsulot yetishtirish texnologiyasini sertifikatlashtirishning tan olingan yangi GlobalGAP sertifikatlashtirish tizimi ishlab chiqildi. Bu tizim mahsulotlarda zararli kimyoviy moddalar yig'ilishi hamda ularni mikrobiologik va mexanik

ifloslanishdan ximoyalash sharoitlarini yaratadi.

GlobalGAP sertifikati - aniq bir qishloq xo'jalik mahsulotini yetishtirish davrida sifat va xavfsizik bo'yicha o'rnatilgan barcha talab va tavsiyalarni to'lik bajarilganligi kafolati hisoblanadi.

GlobalGAP sertifikatlashtirish jarayonida qishloq xo'jalik mahsulotini yetishtirish davridagi barcha agrotexnologiyalar ustidan tuliq tekshirishni nazarda tutiladi. Mahsulotni yetishtirish agrotexnologiyasiga ko'yidagilar kiradi.

Tuproq

Urug'/kuchatlarga oid materiallar

Ugitlash tizimi

Sug'orish

O'simliklarni himoya qilishni integrallashgan tizimi

Xosilni yig'ishtirish

Yig'im-terimdan keyingi ishni yakunlash

Mahsulotni saqlash

Xadimlarni kvalifikatsiyasi

Mexnat gigienasi va texnika xavfsizligi

Texnika xolati

Mahsulotni kuzatish

Atrof muxitni muxofazalash

GlobalGAP sertifikatlashtirish tizimi qishloq xo'jaligi

mahsulotlarini etishtiruvchi fermer xo'jaliklarni 1-jadvalda kel-tirilgan bir kator ustunliklar bilan ta'minlaydi.


**GlobalGAP sertifikatlashtirish tizimining mahsulot yetishtiruvchiga beradigan ustunliklari**

Ustunliklar	Izox:
<i>1.Tizimli yondoshish</i>	Protsedura va jarayonlarni anik identifikatlash xar kanday turdag'i biznesga ijobiy ta'sir kursatadi. Yetishitiruvchi xujalikni boshkarishning barcha nuktai nazarlar yigindisi va kompleks tushunchalarsiz samarali boshkarib bulmaydi.
<i>2.Buyurtmachining ishonchi</i>	Mahsulot buyurtmachisining (kayta ishslash, ulgurchi va chakana savdo korxonalar) sotib olayotgan mahsuloti sifati va xavfsizligiga bulgan ishonchi uzok muddatli xamkorlik yulidir.
<i>Z.Iste'molchining ishonchi</i>	Iste'molchining mahsulot sifati va xavfsizligiga bulgan ishonchi chakana savdo korxonalar bilan bir katorda ushbu yunalishdagi bozor sektorining rivojlanishiga ijobiy ta'sir kursatadi.
<i>4.Xayf-xatarni boshtsarish</i>	Mahsulotning zararlanish/ifloslanish extimolini kamaytirgan xolda, atrof muxitni, mahsulot yetishtirishdagi sanitariya gigienasini yaxshilashga yordam beradi.
<i>5.Ruqbariyatning javobgarligi</i>	Xavfsiz mahsulotni yetishtirish va yetkazib berishga kulay shart sharoitlar yaratilishini ta'minlaydi.
<i>6.Uzaro alotsalar samaradorligi</i>	Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini boshkarish tizimi, oziq-ovqat ishlab chikarish tarmogidagi korxonalar, nazorat kiluvchi va buyurtmachilarning o'zaro aloqalarini kengaytirishga imkon beradi.
<i>7.Ruyxatga olish</i>	Ruyxatga olish tizimi mahsulot yetishtirish jarayoni ustidan nazorat kilish samaradorligini oshirib, nazorat organi bilan alokalarni yengillashtiradi.
<i>8.Krnunchilik tomonidan uimoyalanishi</i>	Kupchilik jaxon davlatlarda GlobalGAP tizimi oziq- ovqat tarmoklarida ishlab chikarishni boshkarish va xavfsiz mahsulotni yetkazib berishning samarali quroli hisoblanadi.
<i>9. Sifat menejmentining barcha tizimlariga mosligi</i>	GlobalGAP tizimi sifat menejmenti tizimlari bilan mosligi: Masalan, BRC, IFS, ISO 9001:2008 standarti tizimlari bilan mos va milliy qonunchilikka zid emas.
<i>10. Yevropa bozorlariga chitsish</i>	Kuplab yevropa savdo majmualari GlobalGAP sertifikatlashtirish tizimi bilan ishlab keladi. Sertifikatlanmagan mahsulotlarni bozorga chikishini oldini olib, sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni sotilishiga kumaklashadi.
<i>11.Savdodagi foyda</i>	GlobalGAP tizimi buyicha mahsulotga olingan sertifikat ichki va tashki bozorda mustaxkam o'r'in egallashda rakobatlashayotgan kompaniyalarga ustunlik beradi.

Xalqaro amaliyot tajribasi GlobalGAP sertifikatlashtirish tizimiga utishni afzalliklarini tasdiklab, ozik-ovkat xavfsizligining ishonchli darajada oshgani xamda mahsulot soxtalashtirilishi xavfi pasayishini ko'rsatdi, shuningdek muvofiklikni tasdiqlash jarayoniga yo'naltirilgan sarf xarajatlarning kamayishi ta'minlanadi.

Ushbu tizim xalqaro xamjamiyatda sifatni ta'minlovchi yagona umumlashgan tizimni kiritishga, mahsulotning butun xarakatlanish yo'lini kamrab olishni ta'minlashga, kup marta takrorlanuvchi sifat auditini oldini olishga, soxtalashtirish imkoniyatini yo'q qilishga va iste'molchilarining o'sib boruvchi talablarini kondirish darajasini oshirishga yordam beradi.

Dunyo bo'yicha GlobalGAP standartini joriy qilish orqali sertifikat olgan tashkilotlar soni yil sayin o'sib borayotganligini 3-rasmida ko'rshimiz mumkin.



**5.10- rasm. GlobalGAP standartini joriy etish dinamikasi.**

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati va xavfsizligiga yetishtirish davridagi turli xil salbiy omillarni ta'sir ko'rsatishini hisobga olgan xolda dunyoning 100 dan ortiq davlatlarida GlobalGAP standarti qo'llanib kelinmoqda. Ushbu davlatlarning aksariyatida mazkur standartni joriy kilish bo'yicha milliy texnik ishchi guruh tuzilib, GlobalGAP asosidagi milliy standartlar qabul qilingan. Masalan, ChileGAP - CHili milliy standarti, AMAGAP - Avstraliya milliy standarti, QS-GAP - Germaniya milliy standarti, New Zealand - Yangi Zellandiya milliy standarti, JGAP - Yaponiya milliy standarti, CHINAGAP - Xtoy

milliy standarti va boshqalar.

Xozirgi paytda respublikamizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish davrida agrotexnik tadbirlarning sifati va xavfsizligini ta'minlovchi xalqaro darajada tan olingen yoki uyg'unlashtirilgan me'yoriy xujjatlar mavjud emas.

Bu xolat xalqaro (Evropa) bozorlarda iste'molchilar tomonidan GlobalGAP sertifikati talab etilayotgan davrda, ushbu standart respublikamiz fermer xo'jaliklarining e'tiboridan chetda qolishi qishloq xo'jalik mahsulotlarimizni xalqaro bozorlarda o'z o'rtimizda yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlari eksporti, sifati va raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek savdodagi texnik tusiqlarni bartaraf etish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Demak, respublikamiz qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarining xalqaro bozorlarida mustaxkam o'rinnegallashi uchun qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtiruvchilarning GlobalGAP tizimi bo'yicha sertifikatlashtirilishi maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiriishda xalqaro GLOBAL G.A.P standartini joriy etish  
buyicha chora-tadbirlar

O'zbekiston Respublikasi faqat o'zi yetishtirayotgan paxta tolasi bilan emas, balki butun dunyo xalqlari yaxshi kurib iste'mol qiladigan mevalari, uzumlari, sabzavot va poliz mahsulotlari bilan mashxur bulib, ularning kupgina turlari va navlari boshka mamlakatlarda uchraymadigan hammani o'ziga tortadigan ta'mi va xushxurligi bilan aloxida ajralib turadi.

O'zbekistonda yetishtirilayotgan meva-sabzavot mahsulotlari iqlim sharoitining juda qulayligi tufayli mana shunday noyob bulganligi uchun ham jaxon qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida yukori darajada raqobatbardoshdir. Masalan, O'zbekistonda yetishtiriladigan uzum navlari tarkibidagi shakar moddasi 18-30 foizni tashkil etadi, pomidor tarkibidagi quruq moddalar mikdori esa 5,5 foizdan oshadiki, bu yevropalik ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlaridagidan ancha yuqori bulib, shunisi bilan xaridorni o'ziga tortadi.


Mahsulot eksport qilish qiymati uning hajmiga nisbatan usganligi

mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan meva-sabzavot mahsulotiga talab jahon bozorida ortib borayotganligidan darak beradi. Shu bilan birga qishloq xo'jaligi mahsulotining sifatini oshirish va uni jahon bozorlariga chiqarish masalalarida ayrim muammolar xam mavjud. Masalan, shulardan biri O'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlari eksporti saloxiyatini oshirish yo'lida faoliyat olib borayotgan korxonalar so'nggi yillarda xalqaro bozorlarda oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligini kafolatlovchi xalqaro tan olingan “Global GAP” sertifikati talab etilayotganligi guvoxi bo'lishmoqda. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini xalqaro bozorlarga chiqishida. tusiqlarni yuzaga kelishiga sabab bulmoqda.

Bunday xolat jahon qishloq xo'jaligi mahsuloti bozorining talabini xisobga olgan xolda O'zbekistonda GlobalGAP standartiga muvofiq menejment tizimini joriy qilish va uni asosida mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha chora tadbirlarni ishlab chiqish va uni amalga oshirish hamda mahsulotlarini yetishtirish davrida agrotexnik tadbirlarning sifati va xavfsizligini ta'minlovchi xalqaro darajada tan olingan yoki uyg'unlashtirilgan me'yoriy xujjatlarni qullashni talab etadi.

Ushbu vazifani xal etish uchun mamlakatimizda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiruvchi xo'jalik va korxonalarda GlobalGAP standartini joriy etish zarur buladi. Mazkur standartni O'zbekistonda joriy etish uchun 5.10-rasmda keltirilgan usulni qullah tavsiya etiladi.

Ushbu vazifani hal etish uchun mamlakatimizda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiruvchi xo'jalik va korxonalarda GlobalGAP standartini joriy etish zarur bo'ladi. Mazkur standartni O'zbekistonda joriy etish uchun



### **5.11- rasmda keltirilgan usulni qo'llash tavsiya etiladi.**

#### **Nazorat savollari:**

- ISO 9000 seriyali xalqaro standartlar asosidagi sifat menejmenti tizimlari?
- Qishloq xo'jaligi va turli xil tarmoqlar uchun menejment tizimi xalqaro standart tizimlari faoliyat ko'rsatishi kerak?

3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda Global GAP xalqaro standartini joriy qilish qanday amalga oshirilladi?
4. Global GAP standartini joriy etish va sertifikatlashtirish
5. Halqaro amaliyotda standartlar qanday maqomga ega?

## **5.8. «O'zstandart» «Halol» standarti bo'yicha sertifikatlashni joriy etish.**



“O'zstandart” agentligi o'z faoliya-tini amaldagi Qonunchilikka ko'ra bevosita va quyi tizim tashkilotlari orqali amalga oshiradi. 9 aprel kuni Poytaxtimizda “O'zstandart” agentligi va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan birgalikda

navbatdagi matbuot anjumani bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasida “Halol” standartlarini qabul qilish va amaliyotga joriy etish ishlari bilan birgalikda ushbu standartlarga muvofiq milliy sertifikatlashtirish tizimini yaratish ishlari boshlangan.

Respublikamizda “Halol” standartlarini qo'llanilishi ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi.

“Halol” belgisi ostida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning nazorati amaldagi talablarga asosan muvofiqlik sertifikatini bergen idora tomonidan amalga oshiriladi.

Eksport qiluvchi korxonalar va fermer xo'jaliklariga amaliy yordam ko'rsatish maqsadida “Halol” standartiga asosan quyidagi namuna shaklida protsedura hujjatlari ishlab chiqildi.

Ushbu ishlab chiqilgan hujjatlardan foydalangan holda, Siz o'z korxonangizni sifat sohasidagi siyosatini belgilab, “Halol” standartiga asosan sifat menejmenti hujjatlarini ishlab chiqishingiz mumkin.

Ushbu tadbirdan ko'zlangan maqsad, yurtimizda ishlab chiqilayotgan mahsulotlarni sifatini ta'minlashdan iboratdir. Unda barcha tashkilot vakillari va diniy tomonidan ham “Halol” nom ostida chiqayotgan iste'mol mahsulotlari jumladan: go'sht, sut, non va shu kabi iste'molga yaroqli mahsulotlarni jahon bozoriga eksport qilib berishni ta'minlashdan iborat.

Buning uchun eng avvalo go'sht mahsulotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ba'zi bir nobakor kimsalarning qilayotgan ishlari achinarli hol albatda.

Misol uchun, harom va halolni farqiga bormayotgan kimsalarni nazarda tutadigan bo'lsak, hatto eshshak go'shtini ham, mol go'shti deb, sotib, oshxona va shunga o'xhash joylarga chiqarib yuborganlar bo'ldi albatda. Bunday jirkanch ishlarga qo'l urganlar bu dunyo va oxiratda qanday javob berar ekanlar.

Bunday voqealar ijtimoiy tarmoqlar orqali ommaga ko'rsatib borildi. Diniy tomondan yondoshadigan bo'lsak, harom nima-yu, halol nima ekanligini farqiga bormasdan bemalol o'z hamyonini o'ylab kelayotgan kimsalar ham afsuski oramizda topiladi azizlar.

Bu borada imomo-xatibimiz Ravshanboy Raimqulovning fikrlarini bilsak:

“Halollik haqida so'z ketganda Abu Homid G'azzoliy “Mukoshafat-ul qulub” kitobida keltirilgan rivoyatlarida Payg'ambarimiz shunday buyuradilar: Halol bo'lмаган narsalarga qarash naq Iblisning o'qiga nishon bo'lish demakdir. Kim Ollohdan qo'rqqanidan halol bo'lмаган narsalarga qarashni tark etsa, Robbi shunday unga bir imon beradiki, bu imonning totini u qalbida his etadi”.

O'zbekistonda Halol sertifikatlashtirish tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. SHunday tadbirlardan biri sifatida O'zstandart agentligi vakillarining tajribani o'rganish maqsadida Malayziyaga tashrif buyurganliklarini keltirib o'tish mumkin.

Tashrif doirasida O'zstandart agenligi va JAKIM-Islom taraqqiyot departamenti o'rtasida muzokaralar olib borildi. Muzokaralar yakunida halol sertifikatlashtirish tizimini amalda qo'llash bo'yicha hamkorlik hujjati imzolangan.

Ma'lumot uchun, Malayziyaning JAKIM tashkiloti Halol sertifikatini beruvchi yagona davlat organi hisoblanadi. Ushbu idora o'zining Latihan Islam deb nomlanuvchi tadqiqot institutiga ega bo'lib, bu yerda nazorat laboratoriya xodimlarining malakasi oshiriladi. Tashkilot dunyoning 42 mamlakatning milliy sertifikatlashtirish idoralari bilan hamkorlik qiladi.

Bundan tashqari, O'zstandart agentligi xodimlari Global Haltech kompaniyasiga ham tashrif buyurdilar.

Agentlik rahbari fikriga ko'ra, Malayziyada imzolangan kelishuvlar O'zbekiston mahsulotlariga Janubi-sharqiy Osiyo bozoriga chiqish imkonini beradi.

### **“Halol” standarti asosida talablar ishlab chiqish.**

Ilgari ta'kidlab o'tilganidek, “O'zstandart” agentligi tomonidan “Halol” standartlarini qabul qilish bo'yicha tizimli ravishda ishlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda yana bir qator davlat standartlari qabul qilinib, amaliyatga joriy etilmoqda.

#### **“O'zstandart” agentligi tomonidan:**

- O'z DSt 3300:2018 (TS 13571:2013, MOD) “Halol ovqat va ichimliklar tayyorlanadigan, saqlanadigan va sotiladigan joylar uchun O'z DSt 3286:2018 qo'llanishining muayyan talablari”,
- O'z DSt 3301:2018 (TS OIK/SMIIK 2:2012, MOD) “Halol” sertifikatlashtirish idoralariga qo'yiladigan talablar”,
- O'z DSt 3302:2018 (M 2200: PART 1:2008, MOD) “Islom iste'mol mahsulotlari – 1 qism: kosmetika va shaxsiy gigiena. Umumiy qo'llanma”;
- O'z DSt 3303:2018 (M 2200: PART 2:2013, MOD) “Islom iste'mol mahsulotlari – 2 qism. Hayvonlar suyagidan, terisidan va junidan foydalanish - umumiy qo'llanma”

davlat standartlari tasdiqlanib, 2018 yil 1 apreldan amaliyatga joriy etildi.

“Halol ovqat va ichimliklar tayyorlanadigan, saqlanadigan va sotiladigan joylar uchun O'z DSt 3286:2018 qo'llanishining muayyan talablari” davlat standarti TS 13571:2013 “Halol ovqat va ichimliklar tayyorlanadigan, saqlanadigan va sotiladigan joylar uchun muayyan talablar” standarti asosida ishlab chiqilgan. Ushbu standart O'z DSt 3286 davlat standartiga muvofiq umumiy ovqatlanish, restoranlar, mehmonxonalar, oshxonalar, kafeteriyalar va bufetlar, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish nuqtalari, tayyor mahsulot supermarketlari, novvoyxonalar va qandolat do'konlarining halol joylari, bunday joylarda ishlatiladigan xom ashyo materiallari, halol taomlarni tayyorlash, saqlash va iste'molga berish uchun talablarini belgilaydi. Shuningdek, ushbu jarayonlarda ishtirok etadigan xodimlar amal qilishi kerak

bo'lgan muayyan qoidalar hamda ushbu jarayonlarda ishlatiladigan asboblar, uskunalar va vositalardan foydalanish qoidalarini o'z ichiga oladi.

"Halol" sertifikatlashtirish idoralariga qo'yiladigan talablar" davlat standarti "Halol" sertifikatlashtirish faoliyatlarini yuritadigan "Halol" sertifikatlashtirish idoralari uchun zarur bo'lgan barcha qoida va tartiblarni o'z ichiga oladi. SHuningdek, ushbu standartda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshiruvchi idoralarning kompitenligini, auditining ketma-ketligini va xolisligini, halol mahsulot, xizmatlar va/yoki menedjment tizimlarini sertifikatlashtirishni prinsiplarini va talablar belgilab berilgan. "Halol" mahsulot/xizmat va/yoki menedjment tizimi sertifikatlashtirish uchinchi tomon - muvofiqlikni baholash idoralari amalga oshiradi. Ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi idoralar uchinchi tomon-muvofiqlikni baholash idorasi hisoblanadi. "Halol" sertifikatlashtirish idorasi davlat yoki nodaavlat bo'lishi mumkin. Ushbu standart akkreditatsiya yoki shunga o'xshash baholash tekshiruvlarida asosiy qo'llanma sifatida foydalanishi mumkin.

"Islom iste'mol mahsulotlari 1 qism: kosmetika va shaxsiy gigiena. Umumiy qo'llanma" davlat standarti MS 2200: PART 1:2008 MOD "Islomda halol iste'mol mahsulotlar 1 qism: Kosmetika va shaxsiy gigiena - Umumiy qo'llanma" standarti asosida ishlab chiqilgan. Ushbu standart "Halol" kosmetika va shaxsiy gigiena yo'naliishlari uchun amaliy tavsiyalarni belgilaydi hamda kosmetika, shaxsiy gigiena, savdo-sotiqla yoki biznesda asosiy talablar bo'lib xizmat qiladi.

"Islom iste'mol mahsulotlari 2 qism. Hayvonlar suyagidan, terisidan va junidan foydalanish - umumiy qo'llanma" davlat standarti MS 2200: PART 2:2013 MOD "Islom iste'mol mahsulotlari – 2 qism. Hayvonlar suyagidan, terisidan va junidan foydalanish - Umumiy qo'llanma" standarti asosida ishlab chiqilgan. Ushbu standart Islom shariati qoidalariga muvofiq tegishli tarmoqlarda hayvonlar suyagi, terisi va junidan foydalanish uchun amaliy tavsiyalarni belgilaydi.

### **"Halol" standartlari talablari asosida sertifikatlashtirish**

"Halol" sertifikatlashtirish - xom-ashyo, qo'shimchalar, ziravorlar, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, ishlab chiqarish ob'ektlari (tsex), ishlab chiqarish vositalari (jixozlar), biznesni boshqarish va ko'rsatilayotgan xizmatlarni "Halol"

standarti talablariga muvofiqligini uchinchi taraf (betaraf) tomonidan tasdiqlashga oid faoliyat hisoblanadi.

“Halol” standarti talablari bo'yicha muvofiqlikni baholash, ixtiyoriy sertifikatlashtirishga kirib, sertifikatlashtirish arizachi talabi asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulot yoki xizmatlarni “Halol” standarti talablariga muvofiqligini baholash maqsadida amalga oshiriladi. “Halol” standarti bo'yicha ixtiyoriy sertifikatlashtirish arizachi va MCHJ «O'zbek-Turk Test Markazi» qo'shma korxonasi o'ttasida tuziladigan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Ma'lumot uchun: Sertifikatlashtirish tizimini yanada takomillashtirish va tadbirkorlarga qulayliklar yaratish maqsadida «O'zstandart» agentligi va Turk standartlari institututi (TSE) ishtirokida, yangi zamonaviy standartlar talablariga javob beruvchi O'zbek-Turk qo'shma korxonasi, ya'ni MCHJ «O'zbek-Turk Test Markazi» qo'shma korxonasi tashkil etilgan bo'lib, qo'shma korxonada hozirgi kunda:

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish idorasi (SI);

- Sifatni boshqarish tizimlarini sertifikatlashtirish idorasi;
- Sinov laboratoriyalari majmuasi (SLM) faoliyat yuritib kelmoqda.

Turkiya akkreditatsiya agentligi TURKAK (TURKISH AKKREDITATION AGENKY) dan sifatni boshqarish tizimlarini sertifikatlashtirish idorasi EN ISO/IEK 17021 xalqaro standarti bo'yicha (akkreditatsiya guvohnomasi № AB - 0115-YK ot 04.02.2015 g.) va to'qimachilik mahsulotlarini sinash laboratoriyasi EN ISO/IEK 17025 xalqaro standarti bo'yicha (akkreditatsiya guvohnomasi № AB-1054-E ot 05.02.2016 g.) xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan bo'lib, sertifikatlashtirish idorasi va sinov laboratoriyasi tomonidan rasmiylashtirilgan sertifikatlar va sinov bayonnomalari butun dunyoda tan olinadi.

“Halol” sertifikati – muayyan mahsulot yoki xizmatning “Halol” standarti talablariga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariiga binoan berilgan hujjat bo'lib, tarkibida islom qoidalari va me'yorlariga binoan iste'molga ruxsat etilgan “Halol” mahsulot va xizmatlar.

“Halol” belgisi - muayyan mahsulot yoki xizmatning “Halol” standarti talablariga mos ekanligini ko’rsatish uchun mahsulotga yoki ko’rsatilgan xizmatga doir hujjatga qo’yiladigan, belgilangan tartibda ro’yxatga olingan belgi.

MCHJ «O’zbek-Turk Test Markazi» QK sertifikatlashtirish idorasi milliy va xalqaro tan olingan idora bo’lib, “Halol” sertifikatlashtirish faoliyatini Turk standartlari instituti (TSE) bilan kelishuv asosida standartlashtirish, metrologiya va akkreditatsiya sohalarida faoliyat ko’rsatuvchi, Islom hamkorlik tashkilotiga (OIK) a’zo hukumatlararo tashkilot Islom davlatlari standartlashtirish va metrologiya instituti (SMIIK), hamda Turk standartlari instituti (TSE) ning quyidagi:

- TS OIK/SMIIK 1 “Halol oziq-ovqat mahsulotlariga qo’yilgan talablar”;
- TS 13571 - “Tayyorlangan halol oziq-ovqat va ichimliklar saqlanadigan va xizmat ko’rsatadigan joylarga TS OIK/SMIIK 1 standartining qo’llanilishi bo’yicha alohida talablar”;
- TS 13683 - “Halol menejment tizimi – mehmonxonalar”;
- TSE K 202 - “Halol kosmetika”;
- TS 6915 - “Mehmonxona xonalariga umumiyl talablar”;
- TS 10082 - “Ish joylari, mehmonxona xonalari, turizm sertifikatlariga ega mehmonxonalar va ularni sinflarga ajratish bo’yicha umumiyl talablar” standartlari asosida amalga oshiradi.

Muayyan mahsulot yoki xizmatlarni “Halol” standarti talablari bo’yicha sertifikatlashtirish auditlari O’zbekiston Respublikasi musulmonlari diniy idorasi tomonidan tayinlangan imom-xatiblar va Turk standartlari instituti (TSE)ning xalqaro ekspertlari ishtirokida o’tkaziladi hamda sertifikatlashtiriladigan mahsulotlar sifati, xavfsizligi va halolligini tasdiqlovchi sinovlar Turk standartlari instituti (TSE)ning laboratoriyalarda amalga oshiriladi. Sertifikatlashtirish auditlari muvaffaqiyatli yakunlangach, xalqaro tan olingan “Halol” sertifikatlari bilan birga mahsulotlarning halolligini tasdiqlovchi sinov bayonnomalari ham taqdim etiladi.

Soxta mahsulotlarni sotib olishni oldini olish maqsadida sertifikatlangan ishlab chiqaruvchilar ro’yxatini Bizning veb-saytimizda ko’rishingiz mumkin.

Shunday qilib, “Halol” standarti talablariga muvofiq mahsulot yoki xizmatlarni sertifikatlashtirish natijasida, bozorda qo’yidagi ustunliklarga ega bo’lishingiz mumkin:

1. Mamlakatimizning 30 mln.dan ortiq musulmon ahli, bundan tashqari, dunyoda musulmon ahlining ortib borishi (taxminan 1,8 mlrd odam, yer aholisining 24 foizi degani) «Halol» belgisi ostida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga talabning yanada oshishini ta’minlaydi;
2. Boshqa e’tiqod vakillari ham ko’pincha “Halol” mahsulotlarni afzal ko’rishmoqda, chunki mahsulotga “Halol” sertifikatning mavjudligi mahsulotlar qo’shimcha xavfsizlik talablari asosida ishlab chiqarilishi, ya’ni mahsulotning sifati, xavfsizligi va ekologik tozaligi uchun yanada qattiqroq talablarni nazarda tutadi; Ishlab chiqarilgan halol mahsulotlar bozori hajmi 4,0 trillion AQSh dollarini tashkil qilib, 20 foizi Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) mamlakatlariga, qolgan 80 foizi esa islomiy bo’lmagan mamlakatlarga (Evropa ittifoqi, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Braziliya va boshqalar) to’g’ri keladi

“O’zstandart” agentligining tashabbusi bilan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 6 noyabrdagi «Meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni mahalliy eksport qiluvchilarni qo’llab-quvvatlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi Qarorining ijrosini ta’minalash maqsadida “Halol” standartini joriy etishning ahamiyati va xalqaro savdodagi o’rni” mavzusida xalqaro o’quv seminari tashkil etildi.

Mazkur tadbirga Turk standartlari institutining xalqaro eksperti Xulya Karaarsalan taklif etili, hamda uning mavzu yuzasidan ma’ruzasi ham tinglandi.

Xalqaro seminarda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo’yicha qo’mitasidan, «O’zbekoziqovqatxolding» XK, «O’zbekoziqovqatzaxira» va «O’zto’qimachiliksanoat» uyushmasidan bir qator mas’ul xodimlari, hamda tadbirkorlik sub’ektlarining vakillari ishtirot etdilar.

Ma'lumki, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Jumladan; Mamlakatimizda turizm sohasini jadal rivojlantirish, uning iqtisodiyotdagi ahamiyati va hissasini oshirish, turistik xizmatlar sifatini diversifikasiya qilish va yaxshilash hamda uning infratuzilmasini kengaytirishga;

- eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tuzilishi va geografiyasini diversifikasiya qilish, iqtisodiyot sohalari va hududlarning eksport imkoniyatlarini kengaytirish va safarbar qilish kabi masalalar belgilab berilgan.

Shu maqsadda, «O'zstandart» agentligi tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarning turistik infratuzilmasining holati va eksport imkoniyalarini yanada oshirish mexanizmi chuqur o'r ganildi. Aniqroq qilib aytganda, sayyoohlarning ehtiyojidan kelib chiqib, sifatli va qulay xizmatlarni ko'rsatish orqali turizm sohasini rivojlantirish uchun ayrim mamlakatlarda «Halol» standartlari bo'yicha mahsulotlarni ishlab chiqarish, shu jumladan ovqatlanish xizmatlari tizimining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumot uchun: Halol (ya'ni - ruxsat etilgan) tushunchasi – bu «islom dinida ruxsat etilgan va yo'l qo'yilgan barcha mahsulotlar» bo'lsa, «Halol» standartlari esa – mahsulotlarni islom dini talablari bo'yicha ishlab chiqarish, saqlash, tashish, sotish va tamg'alash jarayonlariga bo'lган talablarni belgilaydi.

«Halal» arab atamasiga nisbatan umumiyl metodik ko'rsatmalar «Kodeks Alimentarius» Komissiyasining 1997 yildagi 22 sessiyasida qabul qilingan.

Ma'lumot uchun:

«Kodeks Alimentarius» – (lotinchada - ovqat bo'yicha qonunlar yoki qonunlar to'plami) yagona shaklda bayon etilgan oziq-ovqat mahsulotlariga standartlarning xalqaro hamjamiyati tomonidan qabul qilingan to'plamni o'zida ifodalaydi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, "Halal" standartini joriy etish bo'yicha Malayziya, Turkiya, BAA, Saudiya Arabiston, Qatar, Indoneziya kabi mamlakatlar ilg'or hisoblanadi.

Bugungi kunda “Halal” belgisi ostida ishlab chiqariladigan mahsulotlarga Yevropa ittifoqi, AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada, Xitoy, Hindiston, Lotin Amerikasi davlatlari, Yangi Zelandiya va Tailand kabi mamlakatlarda ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, dunyoda musulmonlarning ortib borishi (taxminan 1,8 mlrd odam, yer aholisining 24 foizi) «Halol» standarti talablari asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlarga talabning oshishini ta’minlaydi.

Ma’lumot uchun: Ekspertlarning fikricha, 2025 yilda halol mahsulotlarining ulushi dunyoda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning kamida 20 foizini, 2030 yilga borib esa 25 foizini tashkil etadi.

Bugungi kunda, MDH mamlakatlari (Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Qozog’iston, Qirg’iziston), Saudiya Arabiston, Birlashgan arab amirliklari, Eron, Iordaniya, Misr, Baxrayn kabi musulmon mamlakatlariga «Halol» belgisi ostida o’z mahsulotlarini eksportga chiqarib ulgurgan.

Misol uchun: Birgina Birlashgan arab amirliklari 200 dan ortiq davlatlar bilan savdo sotiq ishlarini amalga oshiradi, bunda mahsulotlarni eksport qilish uchun “Xalol” belgisi bilan sertifikatlangan mahsulot talab etiladi.

Halol standartlari talablari asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bozori hajmi 4,0 trillion AQSh dollarini tashkil etadi, shundan:

- Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) mamlakatlariga - 20 foiz;
- Islomiy bo’limgan mamlakatlarga (Evropa Ittifoqi, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Braziliya va b.q.) – 80 foiz.

2018 yil oxiriga kelib halol mahsulotlari bozori hajmi taxminan 6,4 trillion AQSh dollarini tashkil etishi ko’zda tutilgan.

Misol uchun: Halol turizm - bu jadal rivojlanayotgan soha bo’lib, uning yillik hajmi 126 mlrd. AQSh dollarini tashkil qiladi, 2020 yilga kelib bu ko’rsatkich 419 mlrd. AQSh dollarga yetadi.

Halol turizm industriyasi oxirgi vaqtarda jadal sur’atlarda o’sib bormoqda va mutaxassislar tomonidan bu turizm sohasidagi yangilanish sifatida baholanmoqda.

Jahon sayyohlik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, har yili 300-330 million sayyohlar dunyodagi eng muhim diniy ob'ektlarga tashrif buyurishadi.

Shu munosabat bilan tadbirni “O'zstandart” agentligi Bosh direktori A.Karimov kirish so'zi bilan ochar ekan, “Halol” standartini amaliyotga joriy etishning afzalliklari, hamda ishlab chiqarish korxonalariga, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga mazkur standartni qabul qilish orqali sertifikatlashtirish jarayonlarida belgilangan me'yorlarga tayanish zarurligiga e'tiborni qaratdi.

Mazkur uchrashuv o'zining dolzarbligi bilan yig'ilganlarda va Ommaviy axborot vositalari xodimlarida ham katta ta'surot qoldirdi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga ko’ramiz ” T. “O’zbekiston” 2017 y. 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqiyoti va xalq farovonligini garovi” T. “O’zbekiston” 2017y. 48 b.
3. Abduvaliev A.A., “Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish” Darslik “Sharq”2018.607-B.
4. Abduvaliev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Djabbarov R.R., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.Sh. Osnovы standartizatsii, metrologii, sertifikatsii i upravleniya kachestvom. –Toshkent: NIISMS, 2007., 555 s.
5. Ismatullaev P.R., Matyakubova P.M., To’raev Sh.A., “Metrologiya standartlashtirish va sertifikatlashtirish”. Darslik.Toshkent, “Lesson-press” 2015,- 423 b.
6. O’z DSt ISO 22000:2009 Oziq – ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste’mol qilish tizmasidagi barcha tashkilotlarga qo’yiladigan talablar.
7. Parpiev M.P -“Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash” Ma’ruzalar matni T.TDAU.2019 y.174.b

### **Internet saytlari:**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O’zbekiston Respublikasi xukumat portali
2. [www.standart.uz](http://www.standart.uz) – “O’zstandart” agentligi sayti
3. [www.iso.com](http://www.iso.com) – Xalqaro standartlashtirish tashkiloti sayti
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – O’zbekiston ta’lim portali
5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O’zbekiston respublikasi qonun xujjatlari portali
6. [www.metrolog.ru](http://www.metrolog.ru) – Metrologiya bo'yicha Rossiya federatsiyasining sayti

# **STANDARTLASHTIRISH ASOSLARI NOMLI**

## **O'QUV-QO'LLANMA**

**Tuzuvchilar: Parpiev M.P., Nazarov A.M**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil "18" avgustdagi "356" – sonli buyrug'iga asosan tasdiqlangan. Oliy o'quv yurtlariaro ilmiy – uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiglashtiruvchi kengash Prezidumi qishloq xo'jaligi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etgan*

**Ma'sul muxarrir: t.f.n., dotsent Parpiev M.P**

Standartlashtirish asoslari nomli o'quv-qo'llanma TDAU ilmiy-metodik kengashi 2020 yildagi 15 mart 6-conli bayonnomasi tomonidan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etildi.

Bosishga ro'xsat berildi 15.04.2021. Bichimi (60x80) 1\16. Shartli bosma tabog'i 7,0. Nashiriyot bosma tabog'i 7,0. Adadi 100 nusxa.

---

O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasining 749-237-sonli guvohnomasi asosida